

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZACHO'LNING O'ZLASHTIRILISHI TARIXI**  
**O'QUV QO'LLANMA**

**(TANLOV FANLAR)**

**60220300 – Tarix (mamlakatlar va yo`nalishlar bo`yicha)**

**Guliston 2023**

**Mirzaeva N.J., Ma'rufov Sh.K. Mirzacho'ning o'zlashtirilishi tarixi. O'quv qo'llanma.**

**– Guliston, 2023. – 78 b.**

**(Tanlov fanlar)60220300 – Tarix (mamlakatlar va yo`nalishlar bo`yicha)**

Mirzacho'l vohasida amalga oshirilgan o'zlashtirish ishlarining XIX asr oxiri - XX asr o'rtalarida ro'y bergan ijtimoiy-iqtisodiy ahvolga ko'rsatgan ta'sirini o'lkamiz tarixida yuz bergan siyosiy va iqtisodiy voqealarga bog'lagan va to'plangan ma'lumotlar tahlili orqali imkoni boricha to'laqonli foydalangan holda haqqoniy yoritish, voha aholisining o'sishi va joylashuviga ta'sir etuvchi tabiiy va mexanik harakatlarini tahlil qilish va Mirzacho'lni o'zlashtirish siyosatining demografik oqibatlarini o'rganish bugungi kunda muhim ahamiyatga egadir, mazkur o'quv qo'llanmada yuqorida sanab o'tilgan holatlar yoritilib berilgan. O'quv qo'llanma bakalavriat talabalariga mo'ljallangan bo'lishiga qaramasdan, undan magistrlar, yosh tadqiqotchilar, tarixchi olimlar ham keng foydalanishlari mumkin. Ushbu qo'llanma ustozimiz Ziyaeva Dono Hamidovnaning porloq xotiralariga bag'ishlanadi.

**Маъсул муҳаррир**

**Зияева Д.Х.**

**Такризчилар:**

**Қудратов С.**

**ГулДУ доценти**

**Тошбоев Ф.**

**ЖДПУ доценти**

**Бийқўзиева.**

**ЎзМУ, тфд**

## KIRISH

Mirzacho'l O'rta Osiyoning markaziy qismida, Zarafshon vodiysining shimolida, Nurota tog'larining sharqiy va janubiy qismida joylashgan bo'lib, Qizilqum sahrosining shimoli-sharqiy bo'lagi hisoblanadi.

Ma'lumki, O'rta Osiyo sug'orib dehqonchilik qilinadigan hududga kiradi. Bu yerda yer sharining boshqa bir qancha tumanlaridagi kabi tabiiy vohalar yo'q. Mirzacho'l O'zbekistonning eng qurg'oqchil tumanlaridan biri hisoblanadi. Qadimdan O'zbekistonning tabiati, iqlimi hamda tuprog'i dehqonchilik va chorvachilik bilan keng miqyosda shug'ullanishga imkon yaratgan. Jumladan, O'zbekistonning markaziy qismida joylashgan Mirzacho'l vohasining ayrim qismlarida dehqonchilik bilan shug'ullanish imkoni mavjud bo'lgan bo'lsa, boshqa qismlari mahalliy aholining chorvasi uchun yaylov vazifasini bajarib kelgan.

Mirzacho'lning o'zlashtirish uchun turli tarixiy davrlardagi harakatlar natijasida sug'orma dehqonchilik va chorvachilik bilan vaqtinchalik shug'ullanish uchun imkoniyat bo'lgan, xolos. Tabiiy sharoit tufayli bu jarayonlar uzoq davom etmagan. Suv muammosi, ob-havo noqulayliklari tufayli bu sa'iy-harakatlar uzoqqa cho'zilmagan. Ayniqsa, sug'orish tarmoqlarining vayron bo'lishi Mirzacho'l aholisining turmush tarziga sezilarli ta'sir o'tkazgan. Shu sababli, Mirzacho'lda sug'orma dehqonchilik bilan emas, balki XIX asrning ikkinchi yarmiga qadar chorvachilik va lalmi dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi holatda hayot kechiruvchi aholi yashagan. Ular bilan birga o'troq aholi orasida qo'nim topolmay, yangi hudud izlagan qochoq qipchoqlar, ko'chmanchi qozoqlar va boshqa etnik guruhlar yashaganlar. XIX asr o'rtalariga kelib, Mirzacho'lning shimoliy-sharqiy hududini mahalliy aholi qisman o'zlashtirib, bu yerda chorvadorlar uchun yaylovlar, ayrim adir oraliqlarida bog'dorchilik, dehqonchilik bilan shug'ullanish imkoniyati mavjud bo'lgan. Yangi sug'orish tarmoqlarining, xususan zamonaviy kanallarning ishga tushirilishi asrlar davomida o'zlashtirilmay yotgan juda katta maydonda dehqonchilik bilan shug'ullanish imkoniyatini vujudga keltirdi, natijada Mirzacho'lda asosan sug'orma dehqonchilik, chorvachilik va savdo-sotiq bilan shug'ullanuvchi o'troq

aholi shakllangan, vohaning ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi aholisi o'troq turmush tarziga o'ta boshlagan, yangi aholi manzilgohlari paydo bo'lgan. Yuqoridagi omillar XIX asr ikkinchi yarmi XX asr boshlarida Mirzacho'l iqtisodiy resurslarini o'zgarishiga sezilarli ta'sir o'tkazgan.

Paxta yakkahokimligi, yangi yerlarga bo'lgan talabning ortishi qo'riq va bo'z yerlarni o'zlashtirish zaruratini tug'dirgan. Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi siyosati va 1956-1990 yillarda sovet hukumati qarorlarida Mirzacho'lning o'zlashtirish ishlariga katta e'tibor berilgan bo'lib, bu siyosat juda ko'plab ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari keltirib chiqargan. Ushbu ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarni ta'sirini chuqur tahlil qilish, o'rganish kelajakda o'zlashtirish ishlarining tabiatga, aholining ijtimoiy-iqtisodiy ahvoriga salbiy oqibatlarni oldini olishga xizmat qiladi. Mirzacho'lning sovet davrida o'zlashtirilishi, uning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini tahliliy jihatdan yoritib berishni o'quv qo'llanmaning keyingi nashrlarida amalga oshirishni maqsad qildik. Shuningdek, Mirzacho'l vohasida amalga oshirilgan o'zlashtirish ishlarining XIX asr oxiri - XX asr o'rtalarida ro'y bergan ijtimoiy-iqtisodiy ahvolga ko'rstagana ta'sirini o'lkamiz tarixida yuz bergan siyosiy va iqtisodiy voqealarga bog'lagan va to'plangan ma'lumotlar tahlili orqali imkoni boricha to'laqonli foydalangan holda haqqoniy yoritish, voha aholisining o'sishi va joylashuviga ta'sir etuvchi tabiiy va mexanik harakatlarini tahlil qilish va Mirzacho'lni o'zlashtirish siyosatining demografik oqibatlarini o'rganish bugungi kunda muhim ahamiyatga egadir, mazkur o'quv qo'llanmada yuqorida sanab o'tilgan holatlar yoritilib berilgan.

## I. ASOSIY QISM.

### 1- Mavzu: Mirzacho'l hududining tabiiy sharoiti va suv manbalari

#### Reja.

1. "Mirzacho'l" va "Golodnaya Step" nomi
2. Mirzacho'lning geografik tuzilishi
3. Mirzacho'l lyoss tekisligi
4. Tekislikdagi quduqlar, Sovot volostidagi Kojaip va Uyaz deb nomlangan mahalliy ariqlar

Mirzacho'l O'rta Osiyoning markaziy qismida Zarafshon vodiysining shimolida, Nurota tog'larining sharqiy va janubiy qismida joylashgan bo'lib, Qizilqum sahrosining shimoliy sharqiy bo'lagi hisoblanadi. Mirzacho'l janubda Turkiston tizmasi, janubiy g'arbda Nurota tog'lari, g'arbda Bolatog', Pitalitog', shimoliy g'arbda Qizilqum cho'li, sharq va shimoliy sharqda Sirdaryo bilan chegaralangan. Bugungi kunda O'zbekistonning Sirdaryo, Jizzax viloyatlari, Qozog'istonning Janubiy Qozog'iston viloyati va Tojikistonning Zafarobod tumani hududlarini o'z ichiga oladi.

O'rta Osiyoning qadimgi tillaridan "Marzicho'l" so'zini katta dashtning cheti, deb tarjima qilish mumkin. Arablar bosqinidan so'ng bu so'z o'zgarishga uchrab, "Mirzacho'l" deb atala boshlangan. "Mirza" so'zi arabchada "janob", "saxiy" degan ma'nolarni bildiradi, mana shu holat ayrim tadqiqotchilarning "Mirzacho'l" so'zini "Saxiy dasht" deb tarjima qilishga urinishlariga asos bo'lgan.

Mirzacho'l ilk bor alohida o'lka - Ustrushona sifatida «Beyshi», «Suyshi» va «Tanshu» kabi Xitoy yilnomalarida tilga olinadi, undan oldingi manbalarda o'lka Sharqiy Tsao (suvi yo'q) deb yuritilgan.

XIX asrga qadar Mirzacho'l Buxoro amirligi va Qo'qon xonligi o'rtasida bahsli hudud hisoblangan. Turkiston Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olingach, bu hudud dastlab Turkiston general-gubernatorligi Farg'ona viloyati Xo'jand Uyezdi, 1886 yildan e'tiboran Samarqand viloyati tarkibiga kirgan. Turkiston Respublikasi XKSning 1918 yil 4 iyuldagi qaroriga ko'ra, Xo'jand uyezdining

Erjar, Uralsk, Sovot volostlari va Jizzax uyezdining Ko'k-tepa volostini bir qismi xududlaridan mustaqil Golodnostepsk uyezdi tashkil topgan, 1922 yildan Mirzacho'l deb qayta nomlangan. Uyezd tarkibi Romanovskiy, Spasskiy, Sirdarinskiy, Erjar, Chernyaevskaya, Slavyanskaya, Begovot volostlaridan iborat bo'lgan.

Bu hududda XIX asrning ikkinchi yarmida o'troq, yarim o'troq va ko'chmanchi aholi yashagan. Jizzax uyezdining o'troq rayonlari 14 ta volostdan iborat bo'lib, geografik jihatdan dasht, tog' oldi va tog' volostlariga bo'lingan. Dasht volostlari Xo'ja – Mukur, Sauryuk, O'zbek, Yom bo'lgan bo'lsa, tog' oldi volostlari Sintob, Forish, Bog'don, Zomin, Rovot, O'smat-qatortol, Yangi - Qo'rg'on, Nakrut volostlaridan iborat bo'lgan. Sangzor va Qoratosh volostlari tog' rayonlari hisoblangan.

Tabiiy geografik jihatdan olganda Mirzacho'l Sirdaryoning so'l qirg'og'idagi keng tekislik bo'lib, Sirdaryo, Turkiston va Nurota tog' tizmalari hamda Qizilqum o'rtasida, Toshkent va Samarqand vohalari oralig'ida joylashgan. Qizilqumning umumiy yer maydoni deyarli 20 million gektar, Mirzacho'lniki esa 1 million gektardir. Mirzacho'lda Ettisoy, Erjar, Sho'ro'zak, Mirzarabot, Sardoba, Arnasoy, Ag'och deb atalgan tekislik va pasttekislik joylar bor.

Cho'lning Ettisoy, Qaroy, Sho'ro'zak va Sardoba kabi ba'zi yerlaridagina pastlik va cho'kmalar uchraydi. Mirzacho'lni janub va janubi-g'arbdan o'rab turgan tog'lar Turkiston tog' tizmalarining shimoliy qismi (Nurota tog'lari va boshqa balandliklar) bu yerning tuprog'iga ma'lum darajada ta'sir etgandir. Baland tog'lardan oqib tushadigan suvlar necha ming yillar davomida Mirzacho'l yerlarida unumdor qatlamlar vujudga keltirgan.

XX asr boshlarida Mirzacho'lga kelgan rus ma'murlari dashtda quyoshning jazirama issig'i tufayli o'simliklar sariq-qo'ng'ir rang olib, qurib, cho'l shamoli ta'sirida uchib yurganligi, ayrim joylarda esa sho'rlangan va ochiq maydonlar ko'rinib turganligining guvohi bo'lgan.

Bu davrda Mirzacho'lda ekologik muhit aholi uchun mutlaq qulay emas edi. Mirzacho'lning tabiati va unda aholi joylashuvi shart-sharoitlari haqida

N.N.Leonova, N.I.Leonovlar: «Mirzacho'l vohasi Turkiston tizmasining shimoliy yonbag'riga kelib adirliklar bilan aralashib ketadi. Bir zamonlar har bir adirlik oralig'idagi soylardan suvlar oqib, cho'l hududini ham sug'organ. Asta-sekin suv oqimi adirlik soylarida kamayib, aholi tog' atroflariga va daryo qirg'oqlariga borib o'rnamashgan. Mirzacho'l hududida yaqin 90 yillar avval hech qanday qishloq bo'lmagan. Faqatgina Toshkent-Jizzax-Samarqand-Buxoro savdo tarmog'i va karvonsaroylar mavjud edi, xolos» degan fikrlarini bildirishgan.

Cho'lning shimoliy va sharqiy qismi Sirdaryo sohiliga borib taqaladi. Janubiy tomoni esa Turkiston tizmalari orasidagi adirlarga singib ketadi. Bu hududlarda chorvadorlar uchun yaylovlar va ayrim adir oraliqlarida bog'dorchilik, dehqonchilik bilan shug'ullanish imkoniyati mavjud bo'lgan.

Mirzacho'lning sharqiy qismida uchraydigan shamollar iqlimga katta ta'sir ko'rsatadi. Garmsel tuproqni qovjiratib, haddan tashqari ko'p namlikni bug'latib yuboradi. Shuning uchun bu yerda faqat sug'orish yo'li bilangina ekin ekish mumkin.

Mirzacho'lda, qum barxanlari deyarli uchramaganligi sababli Jizzax, Nurota va Forish cho'llarida sun'iy sug'orish tizimini yaratish orqali sug'orma dehqonchilikni rivojlantirish imkoniyati bo'lgan. Zomin vohasining markaziy qismi pasttekislikdan iborat bo'lib, Mirzacho'lning janubi-g'arbiy qismidagi adirliklar bilan tutashib ketadi.Uning sharqiy-janubiy qismi baland bo'lib, shimoliy-g'arbiy tomonga qarab pastlashib boradi. Sirdaryo bo'ylari to'qayzor, Arnasoyning nariyog'i qumlik cho'ldan iborat.

Umuman, Mirzacho'l hududi tuproq tarkibi jihatidan tog', tog'oldi, Mirzacho'l lyoss tekisligi va daryo qismlariga bo'lingan.

Tog'li tomonga Turkiston tizma tog'larining Oqsuv daryosi g'arbidagi shimoliy yonbag'irlik qismi, Nurota tizma tog'larining shimoliy yonbag'irligidagi Qo'ytosh deb atalgan qismi (Baliqtov va Pistalitog' tog'lari) kiradi. Tog' qismining reliefi har xilligidan, ya'ni past-balandligidan sug'oriladigan dehqonchilik uchun yaroqsizdir. Bu yerda suv ichmaydigan ekinlar ekiladigan, shuningdek, yaylov sifatida foydalaniladigan maydonlar joylashgan.

Tog'oldi qismiga shimol tomoni chiqib turgan Mirzacho'l yassitog'ligi ham kirgan. Bu qismda o'zlashtiriladigan maydonlar nisbatan kamdir. Bu yerda asosan lalmikor yerlar va yaylovlar joylashgan.

Mirzacho'l lyoss tekisligi asosiy maydonni egallaydi, ustki qismi soz tuproq va shag'al qatlamlari bilan qoplangan. Bular doimiy suv oqimi va vaqti–vaqti bilan oqadigan suvlarning ta'siri natijasida paydo bo'lgan. Sirdaryoning yangi o'zanlari ham ana shu qatlamlardan vujudga kelgan. Mirzacho'lning bu qismi iqtisodiy jihatdan asosiy joy hisoblangan, bu yerda asosiy irrigatsiya inshootlari va sug'oriladigan yerlar joylashgan.

Daryo qismi yoki ko'l (to'qay) qismida Bekobod bilan Konnogvardeyskiy (hozirgi Guliston tumaniga qarashli Uch qahramon fermerlar uyushmasi) o'rtasida Mirzacho'lning g'arbiy-shimoliy burchagidan shu daryo bo'ylab o'tgan maydonlardagi to'qayzorlardan mol boqiladigan yaylov sifatida foydalaniladi. Yuqoridagi qismlarning har biri o'ziga xos ob-havo sharoiti bilan bir-biridan farq qiladi.

Mirzacho'lni o'zlashtirish tarixi bilan shug'ullangan R.S.Egamberdiev va A.Razzoqovlar Mirzacho'l yirik karvon yo'llarining kesishgan joyida joylashgan bo'lsa ham, yozma manbalarda bu yerdagi biror yirik qishloq yoki shahar to'g'risida ma'lumot berilmaganligini ta'kidlaydilar.

Arab sayyohi Ibn Xavqal (969 yil) o'z sayohatnomasida arablar bosqinidan avval Sirdaryoning chap sohili bo'ylarida, ya'ni Mirzacho'ldagi bir qator qishloqlar haqida ma'lumot bergan, bu qishloqlar orasida Vinkerd deb atalgan xristian qishlog'i ham mavjud bo'lgan. Bu qishloqning o'rni taxminan XIX asrning ikkinchi yarmida Mirzacho'lda tashkil topgan rus qishlog'i Nijniy Volinskiyning shimoliy qismiga to'g'ri keladi. Ammo, bu qishloqning keyingi asrlardagi tarixi haqida ma'lumotlar saqlanmagan.

Boshqa manbalarda Sirdaryo qirg'oqlaridagina ba'zi bir turar-joylar bo'lganligi, aholi chorvachilik, dehqonchilik bilan shug'ullanganligi qayd qilingan. Mavjud qishloq va shaharlar bosqinchilik urushlari davrida vayron etilgan, hozirgacha ularning xarobalari saqlanib qolgan. Mirzacho'lda turar joylar



nihoyatda kam edi, chunki sug'orish uchun suv etmagan va Sirdaryo suvini cho'lga chiqarish juda qiyin bo'lgan. Shu sababli mavjud qishloq va shaharchalar asosan Sirdaryo bo'yida hamda tog'dan oqib tushuvchi soy va buloqlar yonida paydo bo'lgan.

Mirzacho'l, tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, qadimgi va o'rta asrlardanoq aholi yashashi mumkin bo'lgan o'lka hisoblangan. Mirzacho'l vohasining janubiy qismi tog' oldi yon bag'irlarida miloddan avvalgi I ming yilliklardanoq aholi o'troqlashgan. Mirzacho'l vohasida aholi Xo'jamushkentsoy, Sho'rbuloqsoy, Mug'olsoy, Tog'obsoy, Sarmichsoy, Sirdaryo bo'ylarida istiqomat qilgan. Sug'orish tarmoqlari yaroqsiz holga kelishi bilan o'troq aholi hududni tashlab ketgan.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida mazkur tekislik “Jizzax cho'li” deb ham nomlangan. Jumladan, 1871 yil “Turkestantskie vedomosti” gazetasida chop etilgan maqolada Jizzax va Chinoz o'rtasidagi yerlar Jizzax cho'li deb atalgan. Shuningdek, Jizzax cho'li hududiga faqatgina Jizzax shahri atrofidagi hudud kirmasdan, balki Sirdaryo bo'ylari va Murzarabot atrofi ham Jizzax cho'li deb ta'riflangan. A.Arandarenko ham Sirdaryo, Qizilqum va Turkiston tog' tizmalari o'rtasidagi hudud mahalliy aholi tomonidan Jizzax cho'li deb nomlanganligini yozadi. Boshqa adabiyotda esa Mirzacho'lning Turkiston tog' tizmasi bilan chegaradosh janubiy qismi Jizzax cho'li deb nomlanganligi ta'kidlanadi.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida mazkur tekislikning yana bir nomi “Golodnaya Step” bo'lgan. Ushbu davrda Markaziy Osiyodagi ikkita hudud “Golodnaya Step” deb atalgan. Birinchisi Chu daryosi va Balxash ko'li atrofidagi joylar bo'lgan va bir vaqtning o'zida u Bekpak-dala deb ham nomlangan. Ikkinchi hududga Jizzax va Chinoz o'rtasidagi joylar kirgan. Bu joyga nisbatan “Golodnaya step” nomi XIX asrning 60-yillari oxiridan, ya'ni hududda topografik tadqiqot ishlari olib borilganda va uning asosida xarita tuzila boshlagan vaqtdan e'tiboran qo'llanila boshlangan. Masalan, Yujin Skayler Jizzax va Chinoz o'rtasidagi cho'lni ruslar “Golodnaya Step” deb ataganligini qayd etib o'tadi. E.Smirnov ham mazkur hududni Rossiya imperiyasi amaldorlari “Golodnaya Step” deb ataganligini yozadi.

XIX asrning ikkinchi yarmida “Golodnaya step” toponimi tezda kundalik hayotga kirib kelgan. Bu atama boshqaruv hujjatlarida, ma’lumotnomalarda, yo’l ko’rsatkichlarda, geografik tavsiflarda va matbuotdagi maqolalarda keng qo’llanila boshlangan. Biroq, o’zbek toponimikasida bu hududning “Golodnaya step” deb nomlanadigan shakli uchramagan. Bu atama o’zbek tiliga o’g’irilmagan va hududning eski nomi hisoblangan Mirzacho’l ayrim yozma manbalarda bir qancha o’zgargan shakli bilan ishlatilishda davom etgan.

## **2- Mavzu: Mirzacho’lning o’rta asrlarda sug’orilishi**

### **Reja.**

1. Mirzacho’l hududidagi mahalliy suv manbalari, ularning o’ziga xos jihatlari va ariqlardan foydalanish.
2. Mirzacho’lda o’rta asr sug’orish inshootlari. Korizlar. Quduqlar. Sardobalar.
3. V.V.Bartold, V.I.Masalskiy, K.K.Palen, V.F.Karavaev, A.Kursish, A.Kushakevich, N.Gavrilov asarlarida Mirzacho’lning ba’zi yerlarida qadimgi zamonlarda sug’orish ishlari amalga oshirilganligi haqida ma’lumotlar.

Qadimdan Mirzacho’lning ma’lum qismlarida dehqonchilik yerlari mavjud bo’lgan. Turkiston tog’ tizmalari va Sirdaryodan keladigan turxi xil jinslar Mirzacho’l tuproqlarining unumdorligini oshirgan hamda bu holat dehqonchilik va chorvachilik bilan shug’ullanishga imkon yaratgan. Mirzacho’lning janub va janubiy-g’arb tomondan o’rab turgan Turkiston tog’ tizmalari bu yerning tuprog’iga ma’lum darajada ta’sir etgan hamda baland tog’lardan oqib tushadigan suvlar necha ming yillar davomida Mirzacho’l yerlarida unumdor qatlamlar vujudga keltirgan. XX asr boshlarida Turkiston tog’ tizmalari bilan birgalikda Sirdaryodan keluvchi jinslar ham Mirzacho’lning tuprog’iga ijobiy ta’sir ko’rsatgan. Jumladan, Mirzacho’lning g’arbiy qismidagi tuproq qoplami paydo bo’lishida asosan Turkiston tog’ tizmasining shimoliy yon bag’ridagi tog’ jinslarining nuralishi ta’sir ko’rsatgan bo’lsa, sharqiy qismidagi tuproq qatlamlari Sirdaryodan keluvchi jinslar asosida paydo bo’lgan.

Mirzacho’lning tadqiq etgan yoki Mirzacho’lda sodir bo’lgan ma’lum jarayonlarni o’rgangan olimlar bu yerni qadimdan dehqonchilik va chorvachilik

mavjud bo'lgan hudud sifatida baholagan. Jumladan, hududning tarixini o'rgangan ayrim olimlar Mirzacho'l o'troq hayotga o'tayotgan turk qabilalarining qadimgi dehqonchilik yerlari mavjud joy bo'lgan hamda ushbu tekislikda qadimdan O'g'uz va Eski Tuyatortar sug'orish tizimlarining turkcha nomlanishi bu fikrga asos bo'ladi, deb ta'kidlaydi. Mazkur mavzuda XIX asrda Mirzacho'lni tadqiq etgan tadqiqotchilar ham o'zlarining fikrlarini bildirib o'tgan. Masalan, 1869 yil Chinoz, Xo'jand va Jizzax o'rtasidagi yerlarni o'rgangan A.Aminov quyidagilarni ta'kidlaydi: "Men tadqiq etgan cho'l "Golodno'y" degan nomga loyiq va unda bir qarashda hech qanday qiziqarli narsa yo'qdek tuyuladi. Biroq uni yaqinroq o'rgansak, biz yetarlicha qiziqarli jihatlarini ko'rishimiz mumkin. Birinchidan, hozirgi vaqtda suvsiz bo'lgan joy bir vaqtlar o'troq aholining makoni bo'lganligi ko'rinadi. O'troqlikning belgilari butunlay yo'qolib ketmaganligi buni isbotlab turibdi. Ayniqsa, tashlab ketilgan shudgor yerlarda eski binolar xarobalari mavjudligi buni yaqqol ko'rsatadi. Mazkur ikki oylik ekspeditsiyamning asosiy maqsadi bu ariqlarni tiklash va oldingi hayotni qaytarish imkoniyati bor-yo'qligini aniqlashdan iboratdir". Mirzacho'l haqida bu kabi tavsiflarni XIX asr matbuot sahifalarida ham uchratish mumkin edi. Jumladan, XIX asr oxirlarida chop etilgan maqolalardan birida shunday deyiladi: "General-gubernator Jizzax cho'lini Sirdaryodan Murzarabotgacha ariq o'tkazish orqali sug'orish loyihasi haqida gapirdi. Bir qancha vaqt muqaddam Jizzax cho'lida hayot qaynagan. Avvalgi katta ariqlar bu yerlarda ziroatchilik bo'lganligini ko'rsatadi va hech qanday ikkilanishsiz aytish mumkinki, sug'orish orqali bu yerlar katta hosil bergan". P.P.Shubinskiy ham 1897 yilda o'zining kitobida "ushbu joy (Mirzacho'l – A.B.) uzoq davrdan buyon O'rta Osiyoning dehqonchilik qilinadigan va hosildor vohalaridan biri hisoblangan"ligini qayd etadi. V.Masalskiy esa Mirzacho'lda Eski Tuyatortar, Darg'om va Shohrud kanallari hududda o'n verstdan ortiq maydonda namlikni ushlab turganligi va oqibatda ushbu yerlardan dehqonchilikda foydalanish mumkinligi to'g'risida yozadi.

Yuqoridagi ma'lumotlardan va tavsiflardan shu narsa ko'rinadiki, bir vaqtlar Mirzacho'l sug'orma yerlarni o'zida mujassam etgan dehqonchilik markazlaridan

biri bo'lgan, lekin XIX asrga kelib bu manzaralar yo'qolib ketgan hamda faqatgina bu cho'lga suv olib kelish orqali unda hayotni vujudga keltirish mumkinligiga ishora qiladi. Biroq A.Arandarenko XIX asrda Mirzacho'ning katta qismida dehqonchilik qilish uchun sharoit mavjud bo'lmasa-da, bu hududlarda hayot mavjud bo'lganligini yozadi. Uning fikricha, Rossiya imperiyasi hukmronligigacha bo'lgan davrda Mirzacho'lga nisbatan "Golodno'y" cho'l atamasi ishlatilmagan, faqatgina mahalliy aholi uni Jizzax cho'li deb atashgan. Ushbu cho'lning qishi va erta bahori chorvadorlarning hamma turdagi chorvasi uchun yem-xashak yetkazib bergan va shu sababli o'sha vaqtda mazkur tekislik yeri yirik chorva podalarining makoni bo'lgan.

Tuyatortar, O'rumboy o'g'iz ariqlari izlari, bugungi kunga qadar saqlangan sardobalar, sayyohlarning ma'lumotlari, qo'lyozmalar, V.V.Bartold, V.I.Masalskiy, K.K.Palen, V.F.Karavaev, A.Kursish, A.Kushakevich, N.Gavrilov va boshqalarning asarlarida Turkistonda, jumladan Mirzacho'ning ba'zi eyrlarida qadimgi zamonlarda sug'orish ishlari amalga oshirilganligi haqida ma'lumotlarni olish mumkin.

XVI asrda Buxoro amiri Abdullaxon II tomonidan Mirzarabotda (hozirgi Sardoba tumani hududida) yomg'ir va qor suvlarini to'plash uchun foydalaniladigan suv inshooti sardoba qurilgan. Undan keyingi davrlarda Tuyatortar va O'rumboy o'g'iz ariqlari tuzatilib, Zarafshon va Sirdaryodan suv chiqarilgan. Bular Malik va Mirzarabot pochta bekatlariga, karvonsaroylarga suv bergan, Jizzax vohasining ba'zi yerlarini sug'organ. Jizzax Uyezdi boshlig'i I.Brejezitskiy Tuyatortar arig'ini qayta tiklash taklifini bergan, ammo bu ish natija bermagan.

Mirzacho'ning janubiy – g'arbiy qismida, Jizzax vohasining shimolida Sangzor soyidan suv olgan Mirzarabot arig'ining izlari bor. Bu ariq Jizzaxdan Chinozgacha cho'zilgan eski karvon yo'li bo'ylab bir necha o'n kilometr ga borgan. Mirzacho'ning shimoliy qismidagi ariqlarning ba'zilarini Mirzarabot arig'i bilan tutashgan, deb taxmin qilinadi. A.Abdunabiev fikricha, Mirzarabot arig'i asosan

karvon yo'llariga suv bergan bo'lsa kerak, chunki bu ariq o'tgan joylarda qishloqlar va sug'oriladigan erlar yo'q.

XIX asr boshlarida O'rumboy o'g'izning bosh qismi daryo to'lqinlari ta'sirida buzilgan. Jizzaxning shimol qismida Kli arig'i, Mirzacho'ning sharqiy janubida Bus arig'i, Kiyot ko'li yonida mayda ariqlar bo'lgan.

Mirzacho'l bo'ylab o'tgan ekspeditsiyalardan yana biri D.G.Kolokoltsovning sayohati hisoblangan. U 1873 yilda erta bahorida Jizzaxdan Xivaga ekspeditsiya tashkillashtiradi. Mazkur ekspeditsiya uchinchi kuni, ya'ni 1873 yilning 15 martida Nurekdan Uchmaga keladi. U yerdan ekspeditsiya Forish, Sintob, Temirkabukka va so'ngra Baltisaldir qudug'iga yetib borgan. Nurekdan Baltisaldirgacha bo'lgan yo'lda ular hech qanday qiziqarli jihatlarni ko'rmaydi, biroq yomg'ir, sovuq va kuchli cho'l shamollari kabi tabiat qiyinchiliklariga duch kelgan. D.G.Kolokoltsov aynan Baltisaldir cho'l o'zining xususiyatini o'zgartirishini ta'kidlaydi. Shuningdek, u cho'lda quduq katta ahamiyat kasb etishini qo'shimcha qiladi.

Yuqoridagi tasvirlar Mirzacho'ning shimoliy va shimoliy-g'arbiy qismlari bo'yicha edi. Bundan tashqari, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Jizzax va O'ratepani bog'lovchi Mirzacho'ning janubiy qismidan o'tgan yo'l ham mavjud bo'lgan. I.V.Mushketov ushbu yo'nalish oralig'idagi Mirzacho'l hududini tasvirlaydi va u bu joyni o'lik hudud sifatida aytib o'tadi. Biroq Chinoz va Jizzax oralig'idagi hududlarda pochta stantsiyalari borligini qo'shimcha qiladi. Shuningdek, u boshqa sayohatchilar tavsiflariga asoslanib Mirzacho'l bahor faslida uyg'onishini va bunda minglab chorvadorlar chorvalarni o'tlatib yurganligini, suv quduqlardan olinishi hamda aksariyatining suvi sho'rroq bo'lishini, biroq ayrim quduqlarning suvi sifatli ekanligini yozadi. Bundan tashqari u Mirzacho'ning tabiiy ko'rinishi o'zgarib turishini ta'kidlaydi.

Mirzacho'l O'rta Osiyo iqtisodiyotida muhim o'rin tutganligini ko'rsatuvchi vositalardan yana biri mazkur hududning Toshkent va Samarqand kabi yirik iqtisodiy markazlar orasida joylashganligi bo'lgan. Chunonchi, S.Qudratov o'rta asr arab geograflari bergan ma'lumotlarga asoslanib Mirzacho'ldan o'tuvchi uchta

karvon yo'li bo'lganligini ta'kidlaydi. Ularning ikkitasi Zomindan Xovos orqali Sirdaryo bo'ylab Toshkentga borgan bo'lsa, yana bitta karvon yo'li Jizzaxdan Toshkentga cho'lni kesib o'tish orqali o'tgan. Oxirgi yo'l eng qisqa yo'l bo'lgan, biroq u cho'l hududidan o'tganligi sababli mashaqqatli hisoblangan. Boshqa tomondan bu yo'lda joylashgan uchta sardoba yo'lovchilarni suv bilan ta'minlab, ularning chanqog'ini qondirgan. Birinchi sardoba Chinozdan 40 kilometr janubda joylashgan bo'lib, u Yakkasaroy deb nomlangan. Ikkinchisi Yakkasaroy sardobasidan 13 kilometr janubda bo'lib, hozirgi Oqoltin tumanining Mirzaqishloq yaqinida joylashgan. U Mirzasardoba deb atalib, uning yonida Murzarabot nomli karvonsaroy ham mavjud bo'lgan. Oxirgi sardoba Jizzaxdan 35 kilometr shimolda joylashgan va u Yog'ochli deb atalgan.

Mirzacho'ldagi eng qadimgi inshootlardan biri bu Murzarabot hisoblangan. Ushbu bino karvonsaroy sifatida Buxoro xoni Abdullaxon tomonidan qurilgan. Murzarabot pishiq g'ishtdan va sharq uslubida qurilgan. G'ishtlar katta va to'rtburchak shaklda bo'lgan. Uning gumbazli markaziy xonasi mavjud bo'lgan va uning atrofida kichik xonalar joylashgan. Shuningdek, ushbu kichik xonalarning har biri o'zining kichik gumbazlariga ega bo'lgan va mazkur xonalarning soni jami 25 ta bo'lgan. XIX asr oxirida binoning tashqi devorlari shikastlangan bo'lgan, biroq shunday bo'lsa-da, undan boshpana sifatida foydalanish davom ettirilgan. Jumladan, u o'sha vaqtda pochta stantsiyasi sifatida xizmat ko'rsatib turgan. Murzarabot atrofi loy devor bilan o'rab olingan va u himoya vazifasini o'tagan. A.Aminov XIX asrda Murzarabot yonidan katta karvon yo'li o'tganligini va u keluvchi karvonlar uchun boshpana vazifasini o'taganligini aytadi. Biroq 1870 yillarda ushbu karvon yo'lidan foydalanilmagan. A.Aminov yana guvohlar so'zlariga tayanib, XIX asr boshlarida Sirdaryo Murzarabotning yonidan oqib o'tganligini va daryo keyinchalik o'zanini o'zgartirganligini aytib o'tadi. Bundan tashqari, daryodan Murzarabotga boradigan ariq mavjud bo'lgan va uning o'zani 1870 yillarda ham saqlanib turgan.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida ham Mirzacho'ldan o'tgan karvon va pochta yo'llari o'zining ahamiyatini yo'qotmagan. Savdo jarayonida savdogarlar

nafaqat cho'llarni kesib o'tishiga, balki Mirzacho'lni Toshkentdan ajratib turuvchi Sirdaryoni ham kesib o'tishiga to'g'ri kelgan. Mahalliy aholi ushbu jarayonda savdogarlar va sayyohlarga turli xil xizmatlar ko'rsatgan.

### **3-Mavzu: Turkistonda agrar siyosat me'yoriy asoslarining yaratilishi**

#### **Reja.**

1. Rossiya imperiyasi Turkiston hududini egallagandan so'ng yer munosabatlarini o'zgartirishga dastlabki urinishlar. .
2. 1867 yil 1 sentyabrdagi o'lkani boshqarish to'g'risidagi dastlabki loyiha.
3. K.P.Kaufman, M.N.Nikolaev, F.Girs, V.Komarov va A.L.Kun.
4. 1900 yili 10 iyunda "Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risida"gi navbatdagi Nizom larning Mirzacho'l vohasiga ta'siri.

Rossiya imperiyasi Turkiston hududini egallagandan so'ng o'lkadagi agrar va yer munosabatlarini o'zining manfaatlariga moslashtirishga harakat qildi. Shu sababli dastlabki yillardanoq mahalliy aholining yerga egalik va undan foydalanish tartiblarini o'rganishni boshladi. Buni amalga oshirish uchun maxsus komissiyalar tuzildi va ushbu komissiyalar yer munosabatlariga doir yangi tartiblar bo'yicha takliflarini berib bordi. Boshqa tomondan, Rossiya imperiyasining guberniyalarni boshqarish uchun qonunlar to'plami mavjud bo'lgan. Biroq Turkistonni bu qonunlar asosida boshqarish ma'qul ko'rilmadi. "Agar mavjud qonunlar yuzasidan Turkistonni idora qilganlarida asl maqsadlariga yetolmasdilar. Va shu bois Turkiston masalasida yangicha qonun ishlab chiqib, hayotga joriy qildilar".

Yer munosabatlarini o'zgartirishga dastlabki urinishlar Turkistonning birinchi general-gubernatori K.P.Kaufman tomonidan boshlandi. Jumladan, u 1867 yil 1 sentyabrdagi o'lkani boshqarish to'g'risidagi dastlabki loyihada yer munosabatlariga Turkiston o'lkasidagi ma'lum bir shaxs tomonidan foydalanayotgan yerlardan tashqari barcha yerlarni davlat yerlari deb e'lon qilish, vaqf yerlarini kim foydalanyotgan bo'lsa o'shaning izmida qoldirish, lekin shu bilan birgalikda ularni davlat foydasiga musodara qilishga ijozat berish ko'zda tutiladi. Shuningdek, barcha mulk yerlarni soliq solish orqali odatiy yer egaligi shakliga o'tkazish kabi o'zgarishlarni kiritish taklif etiladi. 1868 yil 3 yanvarda esa

K.P.Kaufman harbiy komitet a'zosi M.N.Nikolaevga xat yozib, undan Turkiston mahalliy aholisining yerga egalik turlarini aniqlash va o'rganishni so'raydi. M.N.Nikolaev bu xatga javoban o'zining takliflarini bildiradi. Uning takliflari hududdagi yer egaligi va undan foydalanish tartiblariga o'zgartirish kiritishni nazarda tutgan. Jumladan, uning takliflarining qisqacha ma'nosi quyidagilardan iborat edi:

- Qo'lida yerga egalik qilishni tasdiqlovchi hujjati bor mulk erlaridan tashqari barcha yerlarni davlat erlariga o'tkazish;
- Er avval kim tomonidan foydalangan bo'lsa, o'shaning tasarrufida qoldirish;
- Davlat yerlaridan foydalanuvchi har bir shaxs soliq to'lashi lozim;
- Mulk huquqida bo'lgan barcha yerlarda amir yoki xonning muhri tushirilgan hujjat bo'lishi lozim. Lekin shu bilan birgalikda agar ushbu hujjatning nusxasi amir yoki xonning arxivida bo'lishi kerak bo'lgan. Agar hujjat nusxasi arxivda bo'lmasa, ushbu yerni amlok, ya'ni davlat yeriga o'tkazish;
- Xiroj yoki tanob solig'idan faqatgina mustamlaka ma'muriyatining viloyat boshqarmasi tomonidan berilgan hujjatga ega yerlar ozod qilinishi;
- Xiroj va tanob soliqlarini pul solig'iga almashtirish.

Keyinchalik Turkistonda yerga egalik turlarini o'rganishni V.Komarov va A.L.Kun davom ettiradi. Natijada M.N.Nikolaev, V.Komarov va A.L.Kun o'lkadagi yerdan foydalanish va yer egaligi shakllarini o'rganish uchun maxsus komissiya tuzish, joylarning o'zida faoliyat olib borish kerakligini taklif qiladi. Ushbu taklifga binoan, 1873 yil maxsus komissiya tuziladi va bu komissiya "Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risida"gi Nizom loyihasini ishlab chiqadi. Komissiya yerni mahalliy aholiga xususiy mulk sifatida emas, balki doimiy foydalanishga berish kerak degan xulosaga keladi. Boshqacha aytganda, barcha yerlar davlatga tegishli bo'lishi va ushbu yerlar faqatgina aholiga foydalanish uchun berilishi kerak edi. F. Girs K.P.Kaufmannning yerga doir qarashlarini sharxlarkan, 1873 yilgi Nizom loyihasida K.P.Kaufman mulk yerlarini soliq olinadigan amlok yerlariga o'tkazishga kirishdi hamda mulkdorlarning yerga bog'liq shikoyatlari qonun asosida ko'rib chiqilishini e'lon qildi, deb yozadi.



Biroq bu davrda Turkistonda yer munosabatlarini tartibga solib turuvchi hech qanday qonun ishlab chiqilmagan edi. 1873 yilgi Nizom loyihasi to'g'risida K.P.Kaufmanning o'zi ham fikr bildirarkan, "choralar mahalliy dehqon aholisidan olinadigan soliqni boshqacharoq shaklda oshirishni ko'zda tutgan bo'lib, amalda u avvalgi xiroj miqdoriga qadar etkazilgan" deb aytib o'tadi. Shuningdek, u qozilik sudlari hal eta olmagan yer masalalari ustidagi kelishmovchiliklarni ko'rib chiqishda amalda yerga kim ega ekanligini nazarda tutilishi kerakligi to'g'risida farmoyish chiqaradi.

K.P.Kaufman vafot etgandan so'ng Peterburgdagi ma'muriyat Turkiston o'lkasidagi agrar va yer munosabatlarini maxsus reviziyalar yuborish orqali o'rganishga, shu asosda maxsus tartib ishlab chiqishni maqsad qiladi. Bulardan biri 1882-1883 yillarda senator F.Girs tomonidan rahbarlik qilingan reviziya komissiyasi edi. Ushbu reviziya tarkibida Rossiya imperiyasining Ichki ishlar vazirligidan N.Galdinskiy, Moliya vazirligidan N.Petrovskiy, S.Ezuchevskiy hamda Adliya vazirligidan A. Ditlovlar ham bo'lgan. F.Girs faqatgina o'lkaning boshqaruv tizimi, sud, moliya kabi masalalar bilan chegaralanib qolmasdan, balki yer-soliq tizimiga ham e'tibor qaratishi kerak edi. Jumladan, ushbu reviziyaga o'lkada soliq tizimini, yer mulklaridan soliqni undirish usullari va ma'muriyat yerga nisbatan aholining yuridik huquqini aniqlashga to'g'ri kirishganmi yoki yo'qmi hamda er soliqlari miqdorini aniqlash kabi vazifalar yuklatilgan.

F.Girs o'zidan avval Turkistondagi yer-suv munosabatlarini o'rgangan komissiya ishlarini tanqid qiladi. Shu bilan birgalikda, F.Girs avvalgi komissiyalar o'lkada agrar va yer munosabatlari nima yoki qanday tartib asosida ishlaganligiga sharhlar ko'rsata olmaydi deydi. U fikrida davom etib, avvalgi komissiyalar shariatga oid kitoblardan havolalar keltiradi, amalda esa yer munosabatlarida shariatga doir kitoblardan foydalanilmagan degan xulosa beradi. Shu sababli reviziya komissiyasi yer masalalariga bog'liq yer aktlari, vaqf hujjatlari yoki qozilik sudlari hukmlari mulk huquqi to'g'risida yozilgan boshqa adabiyotlarga qaraganda ko'proq foydasi tegadi deb hisoblagan. Biroq ushbu hujjatlardagi materiallarni tushunish reviziya komissiyasi a'zolariga qiyinchilik tug'dirgan.

Shularni inobatga olgan holda reviziya yer egalik turlari va yer bilan bog'liq boshqa masalalarni joylarning o'zida o'rgangan ma'qul degan qarorga keladi. Bundan tashqari, komissiya yer masalalariga noto'g'ri munosabatda bo'lish salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkinligini hamda oqibatda bu mahalliy aholining imperiya ma'muriyatiga ishonchini susaytirishi mumkinligini ta'kidlaydi.

Ushbu komissiya o'lkadagi mulk yerlari to'g'risida ham o'z mulohazalarini bildiradi. 1882 yilgacha mahalliy aholining ko'pchiligi o'z mulk yerlarini qaytarishini so'rab ariza yozgan. Reviziya mulk yerlarini tiklash to'g'risidagi fikrni qo'llab quvvatlaydi. Komissiya a'zolarining hammasi shunday fikr bildiradiki, bir tomondan mulk huquqini yo'q qilish odilona ish emas, boshqa tomondan mulk egalari iqtisodiy va ijtimoiy jixatdan katta huquqqa ega bo'lib qoladi va ular bu huquqlarni suiste'mol qilishi mumkin. Shu sababli mulk yerlaridan foydalanishni biroz o'zgartirgan holda muomilaga kiritish taklif etiladi. Unga ko'ra, mulk yerlarini undan foylanayotgan shaxslarga qoldirish kerak, faqatgina ular davlatga yer solig'ini to'lash va boshqa majburiyatlarni bajarish kerak, lekin avvalgidek ma'lum bir mulkdorlarga yer uchun soliq to'lamasligi kerak edi.

Bu komissiya o'lkadagi yer munosabatlarini o'rgangan oxirgi komissiya emas edi. 1884 yil 21 yanvarda yuqori amaldorlardan tashkil topgan maxsus komissiya tuziladi. Komissiya boshlig'i etib general-ad'yutant graf N.Ignatev tayinlanadi. Shuningdek, ushbu komisiya tarkibida F.Girs, A.Abramov, A.Kuropatkin, A.Kun kabi o'lkada xizmat qilgan shaxslar ham bor edi. Ushbu komissiya oldiga mahalliy shart-sharoitlarga va aholining ehtiyojiga mos fuqarolik boshqaruvini ishlab chiqish va aniqlash vazifasi qo'yilgan. Ushbu boshqaruv tizimi o'lkaning Rossiya imperiyasiga qaramligini kuchaytirishi, boshqaruvda davlat xarajatlarini kamaytirish, aksincha davlatning kirimlarini oshirishni ko'zda tutishi kerak edi. Komissiya barcha materiallarni o'rganib chiqishi va Turkiston to'g'risida yakuniy nizomni ishlab chiqishi zarur edi. Tadqiqotchi A.P.Savitskiy ushbu komissiya ishini baholar ekan, Turkiston aholisining asosiy qismi yaylovlarda chorvalarini boqadigan chorvadorlar va shudgor yerlarda dehqonchilik qiladigan dehqonlardan iborat bo'lganligi, mahalliy aholining xo'jaligi yer bilan

bog'liq ekanligi hamda shu sababli komissiya Turkiston o'lkasi uchun yer masalasini to'g'ri qo'yish va uni to'g'ri echish o'lka aholisi uchun hayotiy ahamiyat kasb etishini tushunishgan deb ta'kidlaydi.

Bu komissiya tarkibida ham bo'lgan F.Girs o'troq aholining yashagan yerini davlat yeri deb e'lon qilish siyosiy aloqalarda xavf tug'diradi deydi. F.Girs va komissiyaning boshqa a'zolari o'rtasidagi keyingi tortishuv "o'lik" (ishlov berilmagan) yerlarni xususiy mulkka aylantirish to'g'risida borgan. Mahalliy aholining yerdan foydalanish tartibiga ko'ra "o'lik" yer ishlov berilishi natijasida ulamoning roziligi bilan xususiy mulkka aylantirilgan. F. Girs bu tartibni saqlab qolishni maslahat beradi. Biroq komissiya a'zolarining 20 nafardan 16 nafari o'lkada yerga nisbatan to'liq xususiy mulkni joriy qilishga qarshi ovoz beradi.

Bir qancha tortishuvlardan so'ng 1886 yilda "Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risida"gi Nizom tasdiqlanadi hamda ushbu Nizom o'lkada yer-suv munosabatlarini tartibga solib turuvchi hujjatga aylanadi. Jumladan, Nizomning uchinchi bo'limi yer munosabatlariga bag'ishlangan bo'lib, unda shahar va qishloq hududlarida yerdan foydalanish hamda unga egalik qilish tartiblari bandlarga bo'lingan holda ko'rsatib o'tilgan. Keyingi yillar davomida 1886 yilgi Nizomning yer munosabatlariga oid bandlariga bir qancha o'zgartirishlar kiritildi. Jumladan, 1900 yili 10 iyunda "Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risida"gi navbatdagi Nizom ishlab chiqildi. 1886 yilgi Nizomda Turkiston o'lkasining Samarqand, Farg'ona va Sirdaryo viloyat aholisi faqatgina sug'oriladigan yerlarga avloddan avlodga o'tish orqali egalik qilishi, foydalanishi va tasarruf etishi ko'rsatib o'tilgan bo'lsa, 1900 yilgi nizomda sug'oriladigan yerlar bilan bir qatorda lalmikor hamda "o'lik" yerlarga ham mahalliy aholi egalik qilishi va undan foydalanishi mumkinligi aytib o'tilgan. Bu esa lalmikor yerdan foydalanuvchilar yer unga tegishli ekanligini ko'rsatuvchi hujjat qilishi va ushbu yer uchun soliq to'lashga to'g'ri kelgan. Boshqa tomondan ushbu o'zgartirish mustamlaka ma'muriyati amalga oshirgan siyosatning ayrim jihatlariga zararli hisoblangan va shu bois u Rossiya imperiyasi davrining ayrim tadqiqotchilari tomonidan tanqidga uchragan. S.Ponyatovskiy mustamlaka ma'muriyati xususiy mulkka qarshi kurashayotgan bir

vaqtda ushbu tartib Turkistonda mahalliy aholi o'sha yerlardan xususiy mulk tarzida foydalanishga imkon yaratdi deb tanqid qiladi. Uning fikriga ko'ra, mahalliy aholi mustamlaka davrida xonliklar davridagidan yuz marta ko'p yer maydonlaridan foydalanayotgan bo'lgan. Bu yerlar shariat bo'yicha hech qachon mahalliy aholiga tegishli bo'lmagan, balki musulmon tartiblariga ko'ra bu turdagi yerlar davlat tasarrufida bo'lgan. Lalmikor va ishlov berilmagan yerlarga soliq to'lash orqali foydalanishga imkon yaratilishi natijasida mahalliy aholi bo'sh yerlarni bo'lib ola boshlagan va bu Rossiya imperiyasining agrar siyosatiga mos tushmagan.

Bu davrda hududda Nizomlardan tashqari agrar munosabatlarga doir boshqa tartiblar ham ishlab chiqildi. Chunonchi, Turkistonda mustamlaka ma'muriyati tomonidan an'anaviy agrar va yer munosabatlarini o'zgarishiga katta ta'sir o'tkazgan tadbirlardan biri bu – yer-soliq tuzilishi nomi ostida olib borilgan harakatlar edi. Bunday jarayonlar ham mustamlaka ma'muriyatining dastlabki yillardan boshlab amalga oshirilgan. Buni birinchi bo'lib fon Kaufman boshlab beradi. U 1880 yil aprelida Farg'ona viloyatida yer-soliq ishlarini olib borish uchun buyruq beradi va viloyatdagi bu ishlar 1880-1881 yillarda tugatilishi nazarda tutiladi. Biroq yer-soliq ishlari hududda 1886 yilgi "Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risida"gi Nizom ishlab chiqilishi arafasida tugatiladi. 1886 yilgi Nizomda bunday uslubdagi yer-soliq tuzilish ishlarini dastlab Sirdaryo viloyatining Toshkent Uyezdida va Samarqand viloyatida, keyinchalik Farg'ona viloyatida joriy qilish belgilab qo'yilgan edi. Shu sababli bu tadbir dastlab Sirdaryo viloyatining Toshkent Uyezdida 1887 yil 1 aprelda boshlandi va 1892 yilgacha davom etgan. Yer-soliq ishlari Mirzacho'lning asosiy qismini o'zida jamlagan Samarqand viloyatining Jizzax va Xo'jand Uyezdlarida 1901-1907 yillarda olib borilgan. Bu tadbirning asosiy maqsadi bir tomondan o'lkadagi yerlarni ro'yxatga olish bo'lsa, boshqa tomondan, barcha qishloq jamoalaridagi yerlardan yetishtirilgan qishloq xo'jalik mahsulotlarining hisobini olib borish va shu orqali soliq miqdorini belgilashdan iborat edi. Bu ishlarni amalga oshirish uchun uch marta yer-soliq ishlariga oid instruktsiya ishlab chiqiladi va ular amaliyotga tadbir etiladi. Ulardan

birinchisi 1887 yil 18 martda tasdiqlangan bo'lib, 1887-1890 yillarga mo'ljallangan edi. Ikkinchisi 11 yilga (1891-1901 yillar) mo'ljallangan bo'lib, u 1891 yil 10 aprelda kuchga kirgan. So'ngi instruktsiya 1902 yil 4 mayda tasdiqlangan bo'lib, u 7 yilga mo'ljallab tuzilgan. Ushbu instruktsiya asosida har bir uyezdagi xususiy, jamoat hamda muhlatsiz foydalaniladigan, egalik qilinadigan va tasarruf etiladigan yerlarni baholash hamda ulardan olinadigan yer solig'i miqdorini aniqlash lozim edi.

Biroq agrar sohadagi ushbu yangi tartib o'zining bir qancha kamchiliklariga ega edi. Jumladan, mahalliy aholining yerga nisbatan huquqi e'tiborga olinmagan yoki boshqacha aytganda aholining mulk huquqi qanday tartibda aniqlanishi nazarda tutilmagan. K.K. Palen ma'lum bir xususiy yoki jamoa yerida yer o'lchash ishlarini olib borganligini, lekin ushbu ishni qanday yoki nimaga asoslangan holda olib borishi to'g'risida hech narsa aytilmaganligini tanqid qiladi. Aslida bunday noroziliklar hududdagi mahalliy ulamolar va aholi tomonidan ham bildirilgan. Jumladan, Muhammad Aziz Marg'iloniy Turkistondagi bu jarayonlar to'g'risida yozarkan, uni shunday tasvirlaydi: "... bu Alekseyev to'ra hokimlik ishini qilib turgan mahalda voenniy gubernator farmoyishi bilan hamma ekinlarni va qayroq [yer]larni tanob tortib yozib, har bir volost qishloqlarining ekinlarini a'lo, avsat va adno qilib, har qaysi zotni bayonlab yozub topshururga oblastnoy mahkamasidan necha ming kitobu daftar keldi va har qaysi tanobkashlarga necha yuz adaddan berib, olganiga qo'lini qo'ydirib, muhrini bostirib, qo'llariga tanob berib chiqardi. Avvaldan bu tanobkashlarni dala va qishloqlarga chiqarmasdan burun har qaysi mahkum [mulk]lardagi katta dehqon va inobatlik odamlarni o'z amaldor mingboshi va amaldor qozisi bilan mahkamaga chaqirib olib majlis qildirdi. "Ekinlaringizni tanob torttirib, bu kitobi qaroqosh daftarlarga yozdirib, aning yuzasidan xazinalik pullarni ahvolga qarab narx kesib, pul talab qilib olurman va sizlar nima dersizlar?", - debdi. Bo'ldi g'avg'o, janjal. Fuqarolar: "Bu yangi taomul shariatimizda yo'q, norozidurmiz," – deb unamadilar."

Cho'l hududida yashagan aholiga ta'sir qilgan tartiblardan yana biri bu 1910 yili ko'chmanchilarning "ortiqcha yerlarini" musodara qilish to'g'risidagi qonun bo'lib, u mahalliy aholining g'azabini keltirgan. Chunki mahalliy aholi avvallari chorvachilik uchun foydalanib kelgan yerlarini mulk sifatida olishni xohlardi. Bu tartib natijasida cho'l hududlarida chorvachilik bilan shug'ullangan ko'pgina chorvadorlar dehqonchilikka o'ta boshlaydi. Biroq mazkur tartib mustamlaka ma'muriyatiga bir qancha afzalliklar berar edi. Bir tomondan musodara qilingan ortiqcha yerlar ko'chib keltirilgan rus krestyanlariga berilgan bo'lsa, boshqa tomondan ko'chmanchi chorvadorlarni dehqonchilikka o'tkazish imkoniyati paydo bo'ldi.

Shuningdek, agrar munosabatlardagi yangi tartiblar O'rta Osiyo xonliklari davrida amalda bo'lgan yer turlarining o'zgarishiga sabab bo'lgan. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda amlok (davlat) va vaqf yerlar bir qancha o'zgarishlar bilan bo'lsa-da, saqlanib qolganligini ko'rishimiz mumkin. Biroq mulk, ya'ni xususiy yerlar mazkur davrda mavjud bo'lganmi yoki yo'qmi, degan savol ochiq qolmoqda. 1886 yilgi Nizomda "xususiy yer" yoki "xususiy mulk" degan iboralar uchramaydi. "Turkestanskije vedomosti" gazetasining 1903 yil 47-sonida aynan mana shu masalaga bag'ishlangan maqola chop etiladi. "Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risida"gi Nizomning 255-bandida mahalliy o'troq aholining yerga nisbatan huquqi mahalliy odat asosida doimiy va nasldan-naslga o'tish orqali egalik qilinishi, foydalanilishi va tasarruf etilishi aytilgan. Biroq ushbu Nizomning 259 bandida aholining yerdan faqat foydalanish huquqi saqlanib qolinib, qolgan egalik va tasarruf etish huquqi tushib qolgan. Maqola muallifi bunga izoh berarkan, "evropa" huquqi bo'yicha egalik qilish, foydalanish va tasarruf etish mulk ma'nosini beradi, biroq 259-bandda faqatgina foydalanish huquqi saqlanib qolgan, shuning uchun mahalliy aholining yer huquqi chegaralangan deb xulosa qiladi. Muallif mahalliy aholining yerga bo'lgan egaligini to'liq mulk huquqi sifatida qabul qilmaslikni maslahat beradi, chunki bu yerda suv va ariqlardan foydalanishda cheklash mavjud bo'lsa (nizomning 256-bandi), o'rmon (nizomning 257-bandi) va yer osti boyliklaridan foylanish huquqi

umuman mavjud bo'lmagan. U mazkur masalaga xulosa qilib, foydalanish huquqida bo'lgan to'liq mulk huquqidir deb ta'kidlaydi. Bunga yaqin fikrni Turkistondagi yer islohatlarni o'rgangan dastlabki xorijlik olim D.S.M.Villiams o'z maqolasida ta'kidlab, 1886 yilgi "Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risi"dagi Nizom kuchga kirish natijasida hududda mulk yerlari bekor qilindi, degan fikr bildirib o'tadi. U fikrida davom etib shuni aytadiki, yer aholiga biriktirib qo'yilgan, biroq Rossiya imperiyasi qonunlariga asosan bu to'liq xususiy mulk ma'nosini anglatmagan.

Shu bilan birgalikda, Turkiston aholisining o'zida yerga egalik qilishning xususiy mulk shakli to'g'risida ikki xil fikr mavjud edi. Birinchi guruhdagilar aholining foydalanishida bo'lgan yerlar o'sha shaxsning va avlodining xususiy mulki deb hisoblagan. Ikkinchi guruhdagilar barcha yerlar davlatga taaluqli, aholi faqatgina avloddan-avlodga o'tish huquqi orqali ishlov berilgan yerdan foydalanadi, deb hisoblaganlar. Jumladan, Turkiston general-gubernatorligiga qarashli Amudaryo bo'limining Biybozor volosti aholisi yerni o'zining daxlsiz mulki deb bilgan. Ular yerga nisbatan o'zlarining huquqlarini shunda ko'radiki, ular ham ajdodlariga o'xshab yerga ishlov beradi, sug'oradi, o'g'it soladi va bundan tashqari yer uchun soliq to'lagan. Amudaryo bo'limining Shuraxon, Daukar, Ishim volosti aholisida ham yerga nisbatan shunday tushuncha mavjud bo'lgan. Qo'ng'iro't va Tamdik volosti aholisi esa yerga bo'lgan xususiy mulkni yerdan foydalanish vaqtining davomiyligi bilan bog'laydi. Nukus volosti aholisi esa to'qaylardan tashqari barcha yerlar aholiga qarashli deb hisoblaydi. Aksincha Amudaryo bo'limining Ko'k Uzuksoy, Naupar, Kegeyli, Beshyob, Yangibozor va Chimboy volosti aholisi hudud Rossiya imperiyasi tomonidan zabt etilgandan so'ng hamma yerlar davlat yerlari bo'lib qoldi, deb o'ylagan. Hatto Beshyob volosti aholisi o'z yerlarini sotish huquqi mavjud emas deb hisoblashgan. Naupar volosti aholisi ham shunday fikrda bo'lgan, biroq aholining foydalanish tasarrufida bo'lgan va qadimdan egalik qilib kelayotgan yerini hech kim tortib olishga haqqi yo'q deb tushungan. Amirlik yoki xonlik va Turkiston general – gubernatorligi hududidagi umumiy yerlarning qancha qismi mulk yerlaridan iborat ekanligini

raqamlarda ko'rsak, bu borada yaqqolroq manzara namoyon bo'ladi. Misol uchun, Buxoro amirligi davrida Zarafshon vodiysining umumiy yer maydonining 30 foiz mulki hurri xolis yerlaridan iborat bo'lgan. XIX asrning ikkinchi yarmida esa Buxoro amirligining Shofirkom tumanida 21 151 tanop amlok yerlari, 36 256 tanop mulk yerlar, 9938 tanop vaqf yerlari va 18549 tanop "o'lik" yerlar mavjud bo'lgan. Foiz hisobida oladigan bo'lsak umumiy yer maydonining 42,3 foiz mulk yerlar, 24,5 foiz amlok yerlar, 21,6 foiz o'lik yerlar va 11,6 foiz vaqf yerlari bo'lgan. K.K. Palenning ma'lumotlariga ko'ra, Sirdaryo viloyatida umumiy yerning 0,02 foiz, Farg'ona viloyatida 0,11 foiz va Samarqand viloyatida 0,02 foiz xususiy mulk yerlari bo'lgan. Turkistonning uchta viloyatida jami hisobda esa umumiy yer maydonining 0,03 foiz xususiy mulk yerlari bo'lgan.

Mazkur yer sohasida amalga oshirilgan yuridik islohatlar mahalliy aholiga iqtisodiy qiyinchiliklarni keltirib chiqardi. Bu esa birinchi jahon urushi davomida O'rta Osiyoda oziq-ovqat etishmasligiga olib keldi.

#### **4-Mavzu: Rossiya imperiyasining vohani o'zlashtirish siyosati, yangi sug'orish tizimining vujudga keltirilishi**

##### **Reja.**

1. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistondagi, jumladan, Mirzacho'ldagi irrigatsiya tizimining o'ziga xos jihatlari.
2. Rus hukumatining Mirzacho'lga qiziqishining ortishi
3. Bosh shtab rotmistri G.A.Aminovga Chinoz, Xo'jand va Jizzax oralig'idagi hududda mavjud qadimgi sug'orish inshootlari izlarini o'rganishi
4. Amerikalik ishbilarmon D.Gammond boshchiligidagi ekspeditsiya

Rossiya imperiyasi hukumati Farg'ona vodiysi, Samarqand va Toshkent vohalariga tutashgan Mirzacho'lga ham alohida e'tibor qaratgan. Rus hukumatining Mirzacho'lga qiziqishining ortishi sabablaridan yana biri Toshkent bilan Samarqandni bir-biriga bog'lovchi Chinoz–Jizzax yo'li eng muhim savdo va harbiy yo'l bo'lsa ham, unda suv yo'q edi. Bu yo'l orqali bo'ladigan serqatnovlikni ta'minlab turish uchun unga suv chiqarish zarurati tug'iladi. Ikkinchidan,



Mirzacho'ning bepoyon tekisliklarini qishloq xo'jaligi uchun o'zlashtirish zarur edi.

Imperiya ma'murlaridan biri A.Kushakevich Mirzacho'ning o'zlashtirilishi Turkiston general-gubernatorligining janub, janubiy-sharqqa tomon savdo va siyosiy yo'li atrofida aholining zich joylashuviga olib keladi, deb hisoblardi. Uning fikricha, bu yerga dastlab ko'chmanchilar ekin ekish uchun kelib o'rnashadilar, so'ngra ular asta-sekinlik bilan o'troq turmush tarziga o'ta boshlaydilar. Foydalanilmay yotgan unumdor yerlarda yangi qishloqlar paydo bo'lib, o'zlashtirilgan yerlarda savdo va sanoatning rivojlanishiga turtki bo'lishi kutilgan edi. A.Kushakevich yuqoridagi fikrlarni bildirgan vaqtda, Rossiya imperiyasining Mirzacho'lga ko'chiruvchilik siyosati boshlanmagan edi.

Ammo Mirzacho'lni o'zlashtirish masalasi kun tartibiga qo'yilgach, ketma-ket loyihalar tuzilib, ma'muriyatga taqdim etilgan. Rossiya imperiyasi hukumatining mustamlakachilik siyosatini amalga oshira boshlagan harbiylashgan boshqaruv ma'muriyati boshqa sohalarda bo'lgani kabi irrigatsiya ishlariga ham markazdan chaqirilgan mutaxassislariga murojaat qilishga majbur bo'lgan. Shu tariqa Turkiston general-gubernatori qoshida muhandis-irrigator va texnik-irrigator lavozimlari tashkil qilinadi, ularga irrigatsiya ishlaridan xabardor bo'lib turish hamda kerakli tavsiya va chora-tadbirlarni tayyorlash vazifasi yuklatilgan. Turkiston general-gubernatori K.P.Kaufman 1868 yilda Mirzacho'lni ham o'z ichiga olgan Qurama Uyezdi bo'yicha irrigator lavozimini ta'sis etib, bu amalga harbiy topograf, injener baron Aminov va injener shtabs-kapitan N.Ulyanovlarni tayinladi. Bular ixtiyoriga maslahatchi va yer o'lchovchilar berilgan. O'ratepalik Boyxo'jaev kabi mahalliy amaldorlar va boylar rus ma'murlariga yordamlashganlar.

Bosh shtab rotmistri G.A.Aminovga Chinoz, Xo'jand va Jizzax oralig'idagi hududda mavjud qadimgi sug'orish inshootlari izlarini o'rganish vazifasi yuklatilgan. Uning boshchiligida tuzilgan loyihaga ko'ra Mirzacho'l Zarafshon daryosi suvi bilan sug'orilishi lozim edi. Zarafshonning uzoqda joylashganligi va

suvi kamligi tufayli bu loyiha qabul qilinmadi. Artezian suvlari orqali dashtni sug'orish loyihasi ham rad etildi.

1871 yilda injener N.Ulyanov Mirzacho'lni o'rganib, 1872 yilda uni Sirdaryo suvi orqali o'zlashtirish loyihasini taqdim qilgan. Loyihaga ko'ra kanalning bosh to'g'oni qurilishi Begovot yaqinidagi Parmon Qo'rg'on qishlog'i yonida boshlanishi kerak edi. Taqdim etilgan loyihalardan ushbu loyiha Rossiya imperiyasi hukumati tomonidan qabul qilingan. Yilning oxirida loyiha tasdiqlangach, yer ishlari boshlangan. Keyinchalik bu kanalni Kaufman kanali deb atashgan. Kanal qazish uchun ishchilarni Toshkent shahri, Qurama va Mirzacho'l aholisi etkazib berishi kerak edi. K.P.Kaufman buyrug'iga ko'ra Qurama Uyezdidan 23 ming kishini 10 kunga, Mirzacho'ldan 20 ming, Toshkentdan 10 ming kishini ikki haftaga olish ko'zda tutilgan edi. 1874 yilda kanal qurilishiga 16000 rubl ajratilgan. Shu bilan Mirzacho'lga rus aholisi kirib kela boshlagan. Mablag' yetishmasligi tufayli, 40 000 desyatina yerni sug'orishga mo'ljallangan kanal qurilishi to'xtatilgan. 1874 yilda kanal qurilishi qayta tiklangan. Ammo kam mablag' evaziga qurilishi mo'ljallangan bu ulkan ish mufaqqiyatga yerishmadi. 1874–1878 yillar mobaynida kanal qurilishiga 68294 nafar kishi jalb etilgan. Shundan 14444 kishi Toshkentdan, 28600 kishi Mirzacho'ldan, Quramadan 25250 kishi jalb etilgan edi. 1878 yili bor-yo'g'i 12,5 verst masofada kanal qazildi. Kanal qazish jarayonida ish kuniga ajratilgan 5 so'm dehqonlar va yollanma aholining ehtiyojlarini qoniqtirmagan edi. To'rt yil mobaynida (1874–1878 yy.) 68294 nafar kanal qazuvchilar tomonidan atigi 13 verst masofada qazish ishlari amalga oshirilgan. V.V.Bartold Turkiston o'lkasining birinchi general-gubernatori davrida qabul qilingan loyihalar Mirzacho'l qadimda kanallar bilan sug'orilgan va aholi ko'plab istiqomat qilgan, degan xato taxminga asoslangan va vohada 1872–1879 yillarda yangi kanal o'tkazishga muvaffaqiyatsiz urinishlar aholiga katta ziyon etkazgan deb hisoblagan.

1874 yilning oktyabrida injener N.Flavitskiy Sirdaryodan suvni mashina yordamida ko'tarish orqali Mirzacho'lda 40 ming desyatina yerni sug'orish loyihasini taqdim etdi. Buning evaziga unga sug'oriladigan erlardan 2 ming

desyatina (1 desyatina– 1.0914 gektarga teng) berilishi kerak edi, ammo loyiha qabul qilinmadi.

Mirzacho'lni o'zlashtirish ishlariga foyda ko'rish va boyluk ortirish maqsadida xususiy tadbirkorlar ham qo'shildilar. Xuddi shunday tadbirkorlardan biri N.K.Romanov edi. 1883 yili Turkiston o'lkasida sug'orish ishlari va dehqonchilik xo'jaliklarini yuritish N.K.Romanovga topshirilgan edi. U Mirzacho'lning ichki qismiga suv chiqarish uchun Bekobod qishlog'idan 7 verst yuqoridan damba qurdiradi. Suv chap qirg'oq yoqalab Ettisoy pasttekisligiga oqiziladi. Qo'shtegirmon qishlog'i yonida qo'rilgan qamishli va tosh uyumdan iborat to'g'on "Tsar–plotina"–"Shoh-to'g'on" nomini oldi. N.K.Romanov tashabbusi bilan 1885-1886 yillarda Mirzacho'lga suv oqa boshladi.

Uning tashabbusi va mablag'i hisobiga Mirzacho'lda Buxor ariq qazildi. Bu ariqni qazish ishlari rus mutaxassislari ishtirokisiz mahalliy texnika yordamida olib borilgan. Shu sababli ariqqa Buxor ariq deb nom berilgan. O'zlashtirish ishlaridan katta foyda kelishi mumkinligini ko'rgan knyaz Parmon Qo'rg'on qishlog'idan 1 km quyida to'g'on qurish ishlarini boshlab yubordi. Uning qurilishi 1885 yildan 1890 yilgacha davom etib, 25 verst qazilgan. Buxor ariq qurilishi Kaufman kanaliga nisbatan muvaffaqiyatli amalga oshirilgan, ammo kanal qazish ishi juda ham sekin borgan. Asosiy to'siq texnikaning qoloqligi edi. Qazuvchilarning asosiy ish qurollari kurak, ketmon, belkurak, teshadan iborat edi. Eng achinarlisi shu bo'ldiki, suv chiqarilgandan keyin uch kun o'tgach bosh to'g'on oqim tufayli yuvilib ketdi va kanalga suv oqmadi.

1886 yilgi Nizom asosida 1888 yil 2 avgustda qabul qilingan ko'rsatmaga binoan suvdan foydalanishni boshqarish huquqi mahalliy jamoalardan olinib, rus ma'muriyatiga berilgan. Natijada sug'orish tarmoqlari kengaytirila boshlangan. Bekobod qishlog'i yaqinida Mirzacho'lda 8 ming desyatina yerni sug'orishga mo'ljallangan kanal qurilishi boshlangan.

1891 yilda Xiva arig'ini qayta tiklash ishlari boshlandi. Bu ariq keyinchalik Nikolay I kanali degan nom olgan. Bu ariq ham xuddi Buxor ariq kabi, rus mutaxassislari ishtirokisiz barpo etila boshlandi. 1895 yilda kanal qurilishi

yakunlanadi. Uning uzunligi 83 verst bo'lib, agar har yili kanal ta'mirlansagina, mahalliy aholiga tegishli 750 desyatina, 2 ming desyatidan rus qishloqlari va N.K.Romanov tassarufidagi yerlarni, shuningdek Davlat mulklari va dehqonchilik boshqarmasi ixtiyorida 4 ming desyatina yerni sug'organ. Xuddi shu yili Erjar volostida yana bir ariq qurilishi boshlangan. 1908-1909 yillarda Nikolay I kanalida tozalash ishlari o'tkazilgach, kanal 12 ming desyatina yerni sug'orish imkoniga ega bo'ldi.

Buxor ariq qurilishi kabi Nikolay I kanali qurilishida ham asosiy kuchni rus va mahalliy dehqonlar tashkil etar edi. Ammo, N.K.Romanov kelajakda Mirzacho'lda mustamlaka tayanchini yaratish maqsadida, kanal qurilishiga ko'proq Rossiyadan ko'chib kelganlarni jalb qilishga harakat qilgan edi. Shu maqsadda knyaz rus guberniyalariga, ko'chib kelganlarni Mirzacho'lda ish va yer bilan ta'minlayman, degan va'dalar bitilgan telegrammalarni yuborgan edi.

Kanal texnik jihatdan mukammal emas edi, bu yerda muntazam ravishda ta'mirlash ishlarni olib borish lozim edi. Ammo N.K.Romanov bu ishlarga mablag' sarflashni istamagan. 1899 yilda kanal o'pirilib ketgandan keyin, injener Ermolenko N.K.Romanovga telegramma yo'llaydi. Telegrammaga "o'pirilib ketgan joylarni tuzatish uchun pul berilmaydi, bu ishlar dehqonlarning kuchi bilan bajarilishi kerak, to'g'onning boshidan suvni bo'g'ib qo'yib, dehqonlarga suv bermaslik kerak", - degan javobni olgan. Oqibatda ekinlar suvsiz qurib qolgan, yangi xo'jaliklar katta talofot ko'rgan. Shu sababli irrigatsiya inshootlarini knyaz qo'lidan davlat ixtiyoriga o'tkazish zarur, deb topildi. Nikolay I kanali 1899 yilda davlat ixtiyoriga o'tkazildi. Maxsus komissiya tuzilib, knyaz tomonidan Mirzacho'lda amalga oshirilgan ishlar 340 ming rublga baholandi. Holbuki, knyaz bu yerda 1 009 353 rubl sarf qilganligini ta'kidlagan edi. Bu xarajatlarini qoplash uchun N.K.Romanovga Mirzacho'l erlaridan 2 ming desyatina yer va 240 ming rubl berish haqida qaror qabul qilindi.

Ikkinchi Turkistonni barpo etish uchun Nikolay I kanali suvlari etmas edi, shu sababli rus ma'muriyati Mirzacho'lning turli joylarida yangi sug'orish tarmoqlari qurish zarur deb topdi. 1897 yilda tuzilgan maxsus hukumat komissiyasi bu masala

yuzasidan taqdim etilgan barcha loyihalarni ko'rib chiqib, injener N.A.Petrov loyihasini tasdiqladi. N.A.Petrov Samarqand viloyati irrigatsiyasining boshlig'i, bu sohadagi yirik mutaxassis edi. U bundan ancha ilgari, 1885 yilda Turkiston general- gubernatori N.O.Rozenbaxga Mirzacho'lni o'zlashtirish loyihalari haqida dokladini bergan edi. 1897 yilgi loyihaga ko'ra, temir yo'l va daryo oralig'idagi yerlar sug'orilishi lozim edi. Kanal Mirzacho'lning shimoliy-sharqiy qismini sug'orishga xizmat qilishi kerak edi, bu qism O'rta Osiyo temir yo'li, Nikolay I kanali va Sirdaryo oralig'idagi uchburchak hududni tashkil etar edi. Peterburgdagi texnika komiteti N.A.Petrov loyihasini tasdiqlamadi, asosiy kamchilik etib, tosh to'g'onning qimmatga tushishi ko'rsatildi.

Hukumat o'lka iqtisodiy va ijtimoiy hayotida sug'orish tarmoqlari birinchi darajali ahamiyatga ega ekanligini bilsa-da, uni takomillashtirishga shoshilmagan. 1899 yili Davlat kengashi Mirzacho'lda qariyb 65 kilometrlik kanal qazish uchun 2025 ming rubl ajratgan bo'lsa-da, biroq 1908 yilgacha uning bor - yo'g'i 11 kilometrdan ziyodrog'i qazilgan.

1899 yilda injener-texnolog F.A.Elistratov Mirzacho'lning shimoli- sharqida 45 ming desyatina yerni sug'orish loyihasini ishlab chiqdi. 1901 yil 25 sentyabrda yangi kanal qurilishi boshlandi. Kanal qurilishi 1913 yilga qadar cho'zilib ketdi, hattoki dastlabki 7 yil mobaynida tugallangan loyihaning o'zi ham yo'q edi. Mablag'ning yetishmasligi, kreditlarni kech o'tkazilishi, bunday katta loyihani amalga oshirish uchun mavjud texnikaning qoloqligi, shuningdek, loyihadagi ayrim kamchiliklarni A.Kursish kanal qurilishi bo'yicha ishlarni juda sekin borishining asosiy sabablari edi, deb ko'rsatgan. Mustamlakachi ma'muriyat vakili bo'lganligi sababli u boshqa sabablarni, ya'ni Rossiya imperiyasining Mirzacho'lni sug'orish ishlari bu yerda ikkinchi Turkistonni yaratish maqsadi bilan chambarchas bog'langanligini, markazdan taklif qilingan mutaxassislarni yo'l olis bo'lganligi tufayli kechikib yetib kelishi, ammo rus ma'murlarini mahalliy kadrlar tayyorlashni istamasligi, kam yerli va yersiz dehqonlarni o'zlashtirilgan xududga joylashtirish va mahalliy aholini kanal qurilishi ishlariga keng jalb qilish o'rniga ularning yerlarni zo'rlik bilan bosib olishlari, rus

mutaxassisleri va ishchilarining mahalliy sharoitga qiyinchilik bilan moslashishlari, ko'p hollarda esa issiq iqlimni ko'tara olmay ketib qolishlari kabi holatlarni ko'rsatib o'tmaydi.

1906 yilda 45 ming desyatina yerni sug'orish imkonini beradigan yangi kanal qurilishi uchun 140 ming rubl ajratilgan, shu yilda 12 verst masofada kanal qazilgan. Ammo ishning bunday borishi suvga bo'lgan ehtiyojni qondirmaganligi sababli ma'muriyat Nikolay I kanali faoliyatini tubdan yaxshilashga qaror qilgan. "Turkestarskiy to'plami" da 1906 yili Nikolay I kanalida qazish ishlarni amalga oshirish huquqini Shank arteli qo'lga kiritganligi va asli kasbi injener bo'lgan Shank bu ishlarga O'rta Osiyo temir yo'lining ishsiz sobiq xizmatchilarini jalb etish istagida ekanligi haqida xabar berilgan.

Paxtaga bo'lgan talabning oshib borishi kanal qurilishi ishlarini tezlashtirishga olib keldi. Davlat Dumasining a'zosi N.L.Skalozubov Mirzacho'lga kelib, bu yerda amalga oshirilgan ishlar bo'yicha tayyorlagan batafsil dokladida vohaning shimoliy-sharqiy qismini o'zlashtirish ishini nihoyasiga yetkazish uchun davlat xazinasidan qo'shimcha mablag' ajratish lozimligi ko'rsatilgan. Rus hukumati kanal qurilishiga qo'shimcha mablag' ajratishga majbur bo'lgan. 1911 yilda kanal qurilishining yangi loyihasi tasdiqlandi. Kanal qurilishi ishlari bo'yicha aloqa yo'llari injeneri S.N.Chaevga shartnoma bo'yicha 36 614 963 rubl, 66 kopeyka ajratilib, kanal qurilishini 1915 yil 1 yanvargacha tugatish vazifasi qo'yildi. S.N.Chaev ham injener va ishbilarmon edi. U o'z atrofiga yaxshi tashkilotchi, texnikani yaxshi biladigan injener A.V.Buddasini yordamchi qilib olgan, chet eldan 400 ming rubllik texnika, shu jumladan ekskavatorlar olingan. S.N.Chaev kanal qurilishi ishlarini muddatidan oldin nihoyasiga yetkazdi. Turkiston Davlat mulklari va dehqonchilik boshqarmasi uning arizasiga ko'ra Nikolay I kanali orqali sug'oriladigan yerlardan 300 ming desyatina yer berish masalasini ko'rib chiqib, arizani qanoatlantirgan.

1913 yil 5 oktyabrda (eski hisob bo'yicha) O'rta Osiyo temir yo'lining "Xilkovo" stantsiyasi va Bekobod qishlog'i yaqinida davlat mablag'lari hisobidan qurilishi yakunlangan kanalning ochilishi marosimi bo'lib o'tgan. 100 kilometr

uzunlikda bo'lgan kanalga tantanali suratda suv ochilgan, unga Romanov nomi berilgan. Kanalni tantanali ochilishida harbiy vazir Suxomlinov, Turkiston general-gubernatori A.V.Samsonov va boshqa rus ma'murlari ishtirok etishgan. Kanal 1917 yildan boshlab Shimoliy Mirzacho'l kanali deb yuritila boshlandi. Sovet davrida Kirov nomi bilan, bugungi kunda esa "Do'stlik" kanali deb nomlanadi. Bu kanalni qurilishida bir qancha atoqli rus injenerlari, jumladan Peterburg yo'l injenerlari institutini bitirib chiqqanlardan 20 kishi ishlagan. Kanal qurilishida Rossiya imperiyasida birinchi marta yig'ma temir-betonlardan foydalanilgan. Oqibatda kanal qirg'oqlari suv oqimga chidamli bo'lgan, qirg'oqni yuvilib ketishi xavfini oldi olingan.

1914 yilning bahoridan boshlab, tashkiliy ravishda Mirzacho'lga odamlar ko'chirib keltirila boshlandi va sug'oriladigan ekin maydonlari ko'paydi. 1915 yilga kelib, Turkiston o'lkasida sug'oriladigan yerlar maydoni 2.4 million desyatinaga etdi. Shu jumladan, Mirzacho'lda muhandislik loyihalari bilan qurilayotgan sug'orish tizimlari asosida o'zlashtirilgan yangi yerlar 45000 desyatinaga yetgan.

Nikolay I va magistral kanal hisoblangan Romanov kanali ham Mirzacho'lni sug'orish uchun yetarli emas edi. Shu sababli Sirdaryo havzasida 500 ming desyatina yerni sug'orish uchun qaror qabul qilindi. 1914 yilda injener G.K.Rizenkampf yangi kanal qurilishi loyihasini taqdim qildi. Ammo jahon urushining boshlanib ketishi tufayli bu loyiha amalga oshirilmagan. Loyiha ishlari tamomlangan paytda Mirzacho'lda 45000 desyatinaga yaqin yer (loyiha chegarasida) o'zlashtirilgan bo'lib, bu yerlar Rossiya ichkarisidan ko'chib kelganlar ixtiyoriga foydalanishga berilgan edi. Ana shu yerlar chegarasida rus aholisi yashaydigan qator qishloqlar barpo etilgandi.

Mirzacho'l nafaqat mustamlakachilarni, balki chet el tadbirkorlarini ham qiziqtirib qoldi. Mirzacho'lga frantsuz fuqarosi Filipp Djanni, italyan fuqarosi Malvastro va boshqalar kelib, 430 desyatina yerni ijaraga olgan. Qazish ishlari uchun mahalliy aholini 30 juft ho'kiz va omochlari bilan yollashgan. Chet elliklar paxta ekishni rejalashtirgan. 1900 yili komissiya Mirzacho'lda 45 ming desyatina

yerni sug'orish va paxta ekishga tayyorlashni ma'qulladi. Bu esa Turkiston paxtasining qadri yanada osha boshlaganidan darak bergan.

Mirzacho'lda paxta yetishtirishning kelajagi amerikalik plantatorlarni ham qiziqtirib qolgan. Amerikalik ishbilarmon D.Gammond boshchiligidagi ekspeditsiya vakillari 1911 yilning 27 martida Mirzacho'lga tashrif buyurib, bu yerda agronom Bushuevning tajriba dalasi ishlari bilan tanishgan. Ekspeditsiya tarkibi amerikalik tuproqshunos Vilyam Makki, injener Artur Devis va Zakaspiy o'lkasi bilimdoni V.V.Dubasov, injener S.F.Ostrovskiydan iborat bo'lgan. Shundan so'ng ular o'zlari bilan mahalliy tuproq va paxta navlari namunalarini tahlil uchun olib, Zakaspiy viloyatiga jo'nab ketgan. Amerikaliklar sho'rxok bo'lgan yerga kanaldan sho'r grunt suvlarini oqizilayotganligini ko'rib hayron qolganlar. Amerikaliklar rus hukumati tomonidan Mirzacho'lda amalga oshirilayotgan o'zlashtirish ishlarining ahvolidan qoniqmagan.

Gammondan keyin frantsuz va italyan tadbirkorlari ham Mirzacho'lga qiziqib qoldilar. Frantsiyalik Filipp Djanni bu yerda tuproq ishlarini olib borish uchun pudrat shartnoma olishga muvaffaq bo'lgan. Italiya fuqarosi Fara 430 desyatina yerni ijaraga olgan va kerakli miqdorda ish qurollariga ega bo'lgan, bularni u chorakor va koranda mahalliy aholiga juda og'ir shartlar bilan bergan.

Rus kapitalistlarining keskin kurashi tufayli 1912 yili chet elliklar Mirzacho'ldan voz kechishga majbur bo'ldilar. Shunday qilib Rossiya imperiyasi Mirzacho'lni o'zlashtirish ishlarini arzon mahalliy aholi kuchidan foydalangan holda davom ettiravergan.

Turkiston Davlat mulklari va dehqonchilik boshqarmasi boshlig'i A.V.Krivoshein hisobotlarida Turkistonda yaxshi mo'l hosil beradigan yerlarni sug'orish, paxta ekish va rus aholisini ko'chirib keltirish kabi fikrlar aks ettirilib, bunda Rossiya imperiyasining o'lkada amalga oshirayotgan mustamlakachilik siyosatining mohiyati yaqqol namoyon bo'lgan edi.

1913-1917 yillarda Amudaryo havzasida yirik dala-qidiruv partiyalaridan biriga rahbarlik qilgan V.V.Tsinzerlingning Turkistonda yangi sug'oriladigan yerlarda tashkil qilinadigan dehqon xo'jaliklari o'z-o'zini iqtisodiy tomondan



yoqlash printsipli asosida tashkil qilinishi kerak, bunday xo'jaliklar rossiyalik ko'chib keluvchilar hisobiga emas, balki mahalliy shart-sharoitlarni, sug'oriladigan dehqonchilik sirlarini biladigan yerli aholi vakillari hisobiga o'zlashtirilishi kerak, degan xulosalari o'sha davrda mavjud siyosiy-iqtisodiy ko'rsatmalar, mafkuraga mos kelmasada aytilganligi bilan ahamiyatlidir.

Z.K.Ashirboeva fikricha Rossiya imperiyasi Mirzacho'l yerlarini qisman o'zlashtirib, ba'zi natijalarni qo'lga kiritgan bo'lsada, o'zlashtirilgan yerlar nazoratdan chetda qoldirildi, ularning meliorativ holatini yaxshilashga jiddiy e'tibor berilmay, qarovsiz tashlab qo'yilgan edi.

Natijada Mirzacho'l yerlarining ahvoli yomonlashgan. Mutaxassislar fikrlariga ko'ra, bunga sug'orma dehqonchilik ishlari bilan mutlaqo notanish bo'lgan rus dehqonlarining suvdan foydalanishni bilmasliklaridir. Sug'orma dehqonchilik sohasida ko'p yillik tajribaga ega bo'lgan mahalliy dehqonlar Mirzacho'lga ko'chib kelish huquqidan mahrum edilar.

Rossiya imperiyasi hukumatining vohani o'zlashtirish bo'yicha amalga oshirgan tadbirlari har doim ham kutilgan natijani bermagan, ammo o'lkada o'ziga mustahkam tayanch yaratishini va paxtadan katta foyda olishni maqsad qilib qo'yib, 1872 yildan 1917 yilga qadar o'zlashtirish bo'yicha ketma-ket bir necha loyihalarni amalga oshirgan. 1913 yilda qurilishi tugallangan, zamonaviy talablarga javob beradigan Romanov kanalining ochilishi natijasida vohada juda katta yer maydonlarini sug'orish va vohada paxtachilikni rivojlantirish uchun yangi imkoniyatni vujudga keltirgan, oqibatda paxta etishtiriladigan katta maydonlar paydo bo'lgan. Romanov magistral kanali tarmoqlari orqali sug'oriladigan ekin maydonlarining hajmi ko'paygan. Ammo, rus ma'murlari foyda ketidan quvib, sug'orish shoxobchalarini tegishli tartibda saqlashga, kanal va zovurlarni tozalashga e'tibor bermaganlar, natijada yerlar sho'rxok, botqoq yerlarga aylana boshlagan, chivinlar ko'payib, bezgak epidemiyalari tarqalgan.

## **5-Mavzu: Yerdan foydalanish tartibidagi o'zgarishlar**

### **Reja.**

1. Rossiya imperiyasining sa'y-harakatlari natijasida Turkistonda yer bilan bog'liq masalalarni tartibga solish tizimi va uning boshqaruv shaklining o'zgarishi.

2.XIX asr oxiri – XX asr boshlarida yerga egalik qilish va undan foydalanishni tasdiqlovchi ikki xil yo'l.

3.1911-1912 yillarda Mirzacho'lda sug'orish kanallarining ochilishi munosabati bilan hudud aholisining xo'jalik va yerdan foydalanish masalalarining tadqiq etilishi.

4.XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Mirzacho'lda yerning narxi

Rossiya imperiyasining sa'y-harakatlari natijasida Turkistonda yer bilan bog'liq masalalarni tartibga solish tizimi va uning boshqaruv shakli o'zgardi. O'rta Osiyo xonliklari davrida qozilik intstitutlari yer munosabatlarini tartibga solib turgan bo'lsa, Rossiya imperiyasi davrida bu jarayonlar mustamlaka ma'muriyati tomonidan nazorat qilingan. Boshqacha aytganda, hatto yer munosabatlari shariat asosida tartibga solinishi davom etayotgan bo'lsa-da, mustamlaka ma'muriyati bosh nazoratchi bo'lib qoldi. Bu holatda yer munosabatlarining mohiyati xonliklar davridagi yer munosabatlaridan keskin farq qilgan. Ya'ni, yer munosabatlarida da'vogar va javobgarining huquqlari deyarli o'zgarishsiz qolgan bir vaqtda, bu mulk huquqlarini tartibga solib turuvchi muassasalar va ularning ish vakolatlarida keskin o'zgarishlar ro'y berdi.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida yerdan foydalanish va unga egalik qilish bo'yicha maxsus qonun hujjatlari yo'qligi hamda mavjud tartiblar aniq va tushunarli emasligi sababli bu haqda aniq fikr bildirish qiyin. Sohani faqatgina o'sha davrda yashagan tadqiqotchi yoki amaldor tomonidan yozilgan ma'lumotlar asosida o'rganish muhim. Shuningdek, yerga egalik qilish va undan foydalanish bo'yicha ishlarni o'z ichiga olgan arxiv hujjatlari orqali bilish mumkin. Ma'lumki, u yoki bu shaxs tomonidan berilgan ma'lumotlar odatda faqatgina o'sha ma'lumot beruvchi shaxs nuqtai nazaridan berilib, uning fikrlarini ifodalaydi.

O'rta Osiyo xonliklari davrida mahalliy aholining shariat yoki mahalliy odatga asoslangan har bir yer turidan foydalanish va unga egalik qilish bo'yicha o'z tartiblari mavjud bo'lgan. Sug'orma yerlardan foydalanish tartibiga doir munosabatlar Rossiya imperiyasi davrida ham deyarli o'zgarishsiz amalda qo'llanib kelingan. Chunki sug'orma yerlarning ma'lum bir shaxslarga birlashtirilgan va ularning yerdan foydalanish hamda unga egalik qilish huquqlari huquqiy hujjatlarda o'z aksini topgan. Shu sababli sug'oriladigan yerlardan olinadigan soliq miqdori va soliq turlarida o'zgarishlar sodir bo'ldi, biroq ulardan foydalanish va egalik qilishdagi huquqiy jarayonlarda transformatsiya yuz bermadi. Biroq bu jumlaning lalmikor yer va jamoa yerlaridan foydalanish va unga egalik qilish masalasida qo'llab bo'lmaydi. Chunki ushbu yer turlaridan foydalanish va unga egalik qilish ko'proq huquqiy hujjatlar asosida emas, balki mahalliy odat va og'zaki guvohlik asosida ishlashga mo'ljallangan edi. Mazkur yer turlarining huquqiy hujjatlari mavjud bo'lsa-da, bu davrda amalga oshirilgan agrar siyosat, yuzaga kelayotgan yangi iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlar bu yer turlaridan foydalanish hamda unga egalik qilish masalalariga ta'sir etmasdan qolmadi. Shu sababli jamoa va lalmikor yerlardan foydalanish tartiblarining evolyutsiyasini mikrotarixiy tahlildan foydalanib ko'rsatish mumkin. Chunki bir tomondan bu masalalarni tadqiq qilish uchun faqatgina ma'lum bir yer munosabatlari doir arxiv hujjatlari mavjud bo'lsa, ikkinchi tomondan mikrotarix ushbu munosabatlarni yaqqolroq ko'rsatib bera oladigan ilmiy usul hisoblanadi.

Yerlardan odatda bir shaxs yoki ma'lum jamoa tomonidan birgalikda foydalanilgan. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida yerga egalik qilish va undan foydalanishni tasdiqlovchi ikki xil yo'l mavjud bo'lgan. Birinchisi, qozilar tomonidan berilgan vasiqa hujjatlari bo'lib, u ma'lum yerga egalik qilish va foydalanish huquqini bergan. Bunday holda odatda yerlar oldi-sotdi yoki meros orqali bir shaxsdan ikkinchi shaxsga o'tgan. Ikkinchisi hujjatga asoslanmasdan, balki faqat og'zaki xotira va guvohlikka asoslangan. Yerga ishlov berish va yangi yerlarni ochish orqali yerga egalik qilish mumkin bo'lgan. Bunda dehqon ushbu

yerdan ma'lum davr davomida foydalangan, biroq uni xususiy mulk sifatida olmagan.

Yerdan foydalanish davri turli hududlarda va turli manbalarda har xil ko'rsatilgan. Ayrim manbalarda bo'sh yotgan yerdan foydalanish davri 15 yil qilib ko'rsatilgan bo'lsa, boshqa manbalarda bu davr 90 yil deb hisoblangan. Agar bir avlod vakillari ma'lum davr davomida yerga ishlov bersa, ushbu yer mazkur avlod vakilining mulki hisoblangan, ya'ni har bir yer egasi o'zining ushbu yerga nisbatan huquqi yerdan foydalanish muddatiga bog'liq bo'lgan. Shundan so'ng yerga bo'lgan huquq xuddi sug'oriladigan yerlarga bo'lgan huquqdek bir xil bo'lgan. Boshqacha aytganda, mulkning avloddan avlodga o'tishi va oldi-sotdi orqali bir shaxsdan ikkinchi shaxsga o'tishi qozilik sudlarining hujjatlari orqali amalga oshirilgan. Bunda yerdan foydalanuvchi qozi oldiga to'rtta qo'shnisini olib kelgan va mazkur guvohlar ularning yerlari ushbu shaxsning yerlari bilan chegaradosh ekanligi hamda bu yer shu shaxs tomonidan foydalanib kelinayotganligi to'g'risida guvohlik bergan. Shundan so'ng yerdan foydalanuvchiga yerga egalik qiluvchi hujjat berilgan. Ushbu shaxs avval yerdan faqatgina foydalangan bo'lsa, endi egalik qilish huquqini ham olgan.

Agar ayrim yerlardan bir shaxs foydalangan yoki egalik qilgan bo'lsa, boshqa yerlardan ma'lum qishloq yoki urug' jamoalari birgalikda foydalangan. Jamoa yer maydonlari bir nechta mayda qismlarga – cheklarga bo'lingan va keyin ular qur'a tashlash orqali jamoa a'zolari o'rtasida taqsimlangan. Agar jamoa a'zolari ushbu chek yerlarida bog', uy qurgan yoki chek yerni devor bilan o'rab chiqqan bo'lsa avloddan avlodga o'tish orqali egalik qilish mumkin bo'lgan. Bu vaziyat xususiy mulkning bir shakli ekanligini anglatmaydi. Ma'lum bir jamoa yoki xonadon aniq bir yer maydonidan avloddan avlodga o'tish huquqi orqali foydalangan. Odatda ushbu yer maydoni shaxsning hovlisiga yaqin joyda joylashgan va yer egasi unga ishlov berish orqali o'zining foydalanish tasarrufiga o'tkazgan. Shundan so'ng ushbu yer uning avlodi tomonidan nasldan naslga o'tish orqali foydalanilgan, biroq ularda yerni sotish huquqi mavjud bo'lmagan. Agar yer egasining o'g'li bo'lmasa va qizi yerdan foydalanuvchi boshqa jamoa vakiliga

turmushga chiqsa, nasldan naslga o'tib foydalanib kelayotgan bu yerdan ajralgan hamda mazkur yer jamoa tasarrufiga o'tgan.

XIX asrning ikkinchi yarmida Mirzacho'lda lalmikor yerlarga egalik qilish va ulardan foydalanish bo'yicha mahalliy aholining bir qancha tartiblari mavjud bo'lgan. Jumladan, turli bahslarning oldini olish hamda yerga egalik qilish maqsadida lalmikor yerlar ma'lum yer egalariga hujjatlar orqali tasdiqlanib berilgan va natijada begona shaxs ushbu erga da'vo qilolmagan. XIX asrda mahalliy aholining hovlilar ro'yxati yurgizilgan bo'lib, unda lalmikor yer egalarining ismlari ham ko'rsatilib o'tilgan. Jizzax uyezdi tarkibida bo'lgan Yangiqo'rg'on qozilik sudlarining akt kitoblaridan shu narsa ko'rinadiki, mahalliy aholi orasida lalmikor erning oldi-sotdisi mustaqil tarzda olib borilgan bo'lib, mulkning bir shaxsdan ikkinchi shaxsga o'tishi qozilik sudlarining hujjatlari orqali olib borilgan. Sug'oriladigan va sug'orilmaydigan shudgor yerlar odatda qo'rg'onlar yonida joylashgan va ular ma'lum xonadon tomonidan foydalanilgan. Xo'jand uyezdining Savot volostida ayrim ovul-xonadonlar shudgor maydonlariga O'rta Osiyo xonliklari davrida berilgan "vasiqa" orqali egalik qilgan va bu hujjat ushbu er to'liq ularga tegishli ekanligini bildirgan. Sug'orilmaydigan shudgor yer odatda yosh oilalar o'rtasida ishlov berish uchun taqsimlanmagan, bunday xollarda esa yosh oila boshlig'i qishki hudud uchun qulay haydaladigan yer qidirgan.

Shu bilan birga ayrim lalmikor yerlardan foydalanish huquqi ma'lum davr davomida biron shaxs tomonidan ushbu yerga ishlov berish jarayoniga bog'liq bo'lgan. Bu holatda yerdan foydalanish huquqi hujjatlar orqali tasdiqlanmasdan, balki og'zaki xotiraga asoslangan. XX asr boshlarida etnografik tadqiqot olib borgan N. Virskiy aholidan surishtirib shuni aniqlaydiki, agar bir avlod vakillari 90 yil davomida ma'lum bir lalmikor yerga ishlov bersa, ushbu yer mazkur avlod vakilining mulki hisoblangan, ya'ni har bir yer egasi o'zining ushbu yerga nisbatan huquqi yerdan foydalanish muddatiga bog'liq bo'lgan. Shundan so'ng lalmikor erga bo'lgan huquq xuddi sug'oriladigan yerlarga bo'lgan huquqdek bir xil bo'lgan. Boshqacha aytganda, mulkning avloddan avlodga o'tishi va oldi-sotdi orqali bir shaxsdan ikkinchi shaxsga o'tishi qozilik sudlarining hujjatlari orqali

amalga oshirilgan. Bunday tartib Mirzacho'ning boshqa hududlarida ham mavjud bo'lgan. Jumladan, Chordor volostiga qarashli Sirdaryoning bo'ylarida keng joylar mavjud bo'lib, bo'sh maydonlar hududda dehqonchilik qilish orqali ma'lum shaxsning ixtiyoriga o'tgan. K.K.Palen ham o'zining hisobotida Mirzacho'ning Chordor volostida lalmikor yerlar biron shaxs tomonidan ma'lum muddat foydalangandan so'ng uning mulkiga aylanganligini ta'kidlaydi. Shuningdek, u lalmikor yerlar biron shaxsning xususiy mulkiga aylangandan so'ng uni ijaraga berish mumkin bo'lganligini, biroq lalmikor yer maydonini sotish mumkin bo'lmaganligini aytib o'tadi.

XX asr boshlariga kelib hududdagi yer huquqi va yerdan foydalanish masalalarini o'rganish kuchayadi. Jumladan, 1911-1912 yillarda Mirzacho'lda sug'orish kanallarining ochilishi munosabati bilan hudud aholisining xo'jalik va erdan foydalanish masalalari tadqiq etiladi. 1911 yilgi tadqiqot davomida asosan Xo'jand Uyezdi tarkibiga kiruvchi Mirzacho'lnig sharqiy hududlari o'rganilib chiqilgan bo'lsa, 1912 yilda Jizzax Uyezdi tarkibiga kiruvchi Mirzacho'ning g'arbiy qismlari tadqiq etiladi. Mazkur tadqiq etilayotgan xo'jaliklarning 36,7 foizida pichanzorlar mavjud bo'lgan. Ushbu o'rganilayotgan hududda esa lalmikor yerlarning asosiy qismi bedazor, yo'ng'ichqa va pichanzorlardan iborat bo'lgan.

Yo'ng'ichqa asosan hovlilarda o'sgan. Pichanzor o'z navbatida sug'oriladigan va sug'orilmaydigan pichanzorlarga bo'lingan. Suvli pichanzorlarni Xo'jand Uyezdining Savot volostida uchratish mumkin bo'lgan, biroq ularda sug'orilmaydigan pichanzor maydonlari mavjud bo'lmagan. Shuningdek, Mirzacho'ning ayrim joylarida ajriqzorlar mavjud bo'lgan. Jumladan, bunday ajriqzorlarni Ko'ktepa volostida uchratish mumkin bo'lib, u bahorda Kli daryosi suvidan to'yinib unib chiqqan. Suvli pichanzorlardan faqat unga egalik qiluvchi xo'jalik foydalangan. Biroq XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Mirzacho'lda asosan sug'orilmaydigan pichanzorlar keng yoyilgan va aholining talabini qondirgan. Sug'orilmaydigan pichanzorlarning keng tarqalgan turlari to'qayli va daraxtzorli pichanzorlar Sirdaryo bo'ylarida joylashgan. Ushbu pichanzorlardan ma'lum jamoa tomonidan foydalanib, ular har yili pichan o'rilishidan avval

taqsimlangan. Jamoaning pichanzor maydonlari bir nechta mayda qismlarga - "chek"larga bo'lingan va keyin ular chek (qur'a) tashlash orqali ovulning bir qancha qarindosh guruhlari o'rtasida taqsimlangan. Qur'a tashlash orqali pichanzor maydonlarini olgan ma'lum jamoa guruhi pichanzorni birgalikda chegirma qiladi va tayyorlangan pichanlar bog'lami jamoa a'zolari o'rtasida teng taqsimlanadi. Pichanzor maydonlaridagi o'tning mo'lligi bo'yicha farq chekda shunday hisob bilan bo'linadiki, unda har bir xo'jalik taxminan bir xil pichan o'ramiga ega bo'ladi. Odatda pichan o'ramlarini har bir jamoaning vakillari jamoa a'zolari o'rtasida taqsimlagan va uning hisobini yuritgan. Bunda chekdagi maydonlar ko'z bilan chamalangan holda bo'lingan. Umuman olganda, maxsus pichan o'riladigan joylar (pichanzorlar) aholiga etishmagan, shu sababli chorvani em-xashak bilan ta'minlash maqsadida umumiy foydalanishda bo'lgan yaylovlardan ham foydalanilgan va bunday turdagi yaylovlarda turli xil o'tlar o'sgan. Bunday maydonlardan xosil yig'ishda maxsus tartib mavjud bo'lmagan.

Yuqorida lalmikor yerlar faqatgina xususiy mulk maqomida bo'lmay, balki ularning ayrimlari ma'lum jamoa tomonidan birgalikda foydalanganligi ko'rib o'tildi. Dastavval, yer munosabatlariga oid tarixiy jarayonlarni tushunish uchun Mirzacho'l hududida XIX asr oxiri – XX asr boshlarida qanday turdagi jamoa mulklari bo'lganligi hamda ulardan qanday foydalanilganligi to'g'risida ma'lum bir misollarni keltirib o'tish maqsadga muvofiqdir. 1853 yilda Qipchoq jamoasi o'zlarining jamoa mulki bo'lgan Qipchoq ariqning yarim suvini Xushvaqtboy va Muhammad Karimboylarga sotadi, bu to'g'rida yuridik hujjat tuziladi. Biroq 38 yildan so'ng Qipchoq jamoasi Jizzax Uyezdi boshlig'iga ariza yozadi. Ular o'z arizalarida jamoa mulki hisoblangan suvni qaytarishni so'raydi. Ular bunga shunday asos keltiradiki, unga ko'ra ushbu mulk Qipchoq jamoasi tomonidan sotilmagan, balki Qipchoq jamoasiga qarashli bo'lgan 15 kishi tomonidan sotilgan. Bu holat shariat qoidalariga mos bo'lmagan. Shariatga ko'ra, jamoaga tegishli mulkning 15 kishi tomonidan sotilishi noqonuniy hisoblangan. Bu vaqtda Qipchoq jamoasi 150 kishidan iborat bo'lgan. Jamoaviy mulk tushunchasi faqatgina suvga tegishli bo'lmay balki, yerga ham taaluqli bo'lgan. 20 ta uydan iborat bo'lgan

jamoaning Sog'ishmon qishlog'ining Sho'rchi mavzesida 35 botmon yeri mavjud bo'lgan va ushbu yer mazkur jamoaga tegishli ekanligi to'g'risida qozilik hujjati mavjud bo'lgan hamda bu yer jamoa mulki bo'lib qolgan. Ammo mazkur jamoa boshlig'i yerga doir qozilik hujjatini yo'qotib qo'yadi. Natijada 1889 yilda qozi bu yer ularga tegishli ekanligi to'g'risida yangi hujjat qilib beradi. Bu misollar ushbu jamoa yer va suvlarining yuridik hujjatlari mavjud ekanligini ko'rsatadi.

Biroq, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Mirzacho'l hududida yana bir turdagi jamoa mulklari bo'lganki, ular odatda hujjatlashtirilmagan. Arxiv hujjatlaridan ma'lum bo'lishicha, yer egaligi faqatgina huquqiy hujjatlar orqali tasdiqlanmasdan, balki guvohlik va og'zaki xotira orqali ham yerning huquqiy holati haqida ma'lumotga ega bo'lish mumkin edi. Aynan mana shunday, ya'ni og'zaki guvohlik va xotiraga asoslangan yer munosabatlaridagi munozaralar mustamlaka ma'muriyati davrida yuzaga kela boshladi. Yuzaga kelgan bunday turdagi yangi holat avval yuridik hujjatga ega bo'lmagan, biroq mahalliy urf-odatlariga ko'ra ishlab kelayotgan yerga egalik munosabatlarini hujjatlashtirishni talab qildi. Ma'lumki, dehqonchilik bilan shug'ullanadigan o'troq aholining hujjatlashtirilgan yerlari mavjud bo'lgan. Bir vaqtning o'zida chorvachilik bilan shug'ullanadigan hamda yilning ma'lum bir davrida bir joydan ikkinchi joyga ko'chib yuradigan chorvadorlarning hujjatlashtirilmagan yerlari ham mavjud bo'lgan. Biroq 1886 yildagi "Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risida"gi Nizomda chorvadorlarning qishlov erlari ularga biriktirilib qo'yilgan. Boshqacha aytganda, chorvadorlardan o'zlarining avvaldan foydalanib kelayotgan yerlarini yoki yaylovlarini hujjatlashtirish talab etilmas edi. Lekin bu davrda yana shunday turdagi jamoalar bo'lganki, ular ma'lum bir vaqt davomida ma'lum bir hududda dehqonchilik qilgan hamda keyinchalik ushbu yerni tashlab boshqa hududga borib o'z dehqonchilik ishlarini tashkil etgan. Bunday turdagi yerlar asosan jamoa tarzida foydalanilgan. Shu bilan birgalikda bunday erlarga og'zaki xotira asosida egalik qilingan va uning o'ziga xos bir qancha tartiblari mavjud bo'lgan. Biroq mustamlaka davrida ushbu tartiblar asosida ishlash jarayonida qiyinchiliklar vujudga keldi hamda ushbu yerlarga og'zaki xotira asosida egalik qilmasdan, balki



ularni hujjatlashtirish talab qilindi. Shu sababli XIX asr oxiri - XX asr boshlarida bunday yerlar bilan bog'liq bir qancha munozarali holatlar vujudga kelgan. Jumladan, Zomin volostining Dahol deb nomlangan hududida bir bo'lak yer mavjud bo'lgan. Dastlab ushbu yerda ma'lum bir jamoa istiqomat qilgan va og'zaki xotiraga asosan ushbu yer ularning mulki hisoblangan. Biroq, bir necha yildan so'ng ular bu yerni tashlab ketadi. Shundan so'ng Solin deb nomlanuvchi urug' jamoasi ushbu yerga ko'chib kelib, bu yerni egallaydi va o'rnashib qoladi. Keyinchalik Xitoy-Yuz jamoasi bu yerga keladi hamda Solin jamoasidan ularga dehqonchilik bilan shug'ullanishi va ekin ekish uchun yer berishini so'raydi. Xitoy-Yuz jamoasi 2-3 yil davomida ushbu yerga ekin ekadi. Shundan so'ng ular ham ushbu yerdan ko'chib ketadi. 1870 yilda Xitoy-Yuz jamoasining 30 oilasi Hisordan ushbu yerga qaytib keladi hamda 15 yil avval ular tomonidan foydalanilgan yerlarni qaytarishni so'raydi. Mahalliy odatga ko'ra, ular ushbu yerni tashlab ketganiga eng ko'pida 15 yil bo'lgan bo'lsa mazkur erning bir bo'lagini talab qilish huquqiga ega bo'lgan. Biroq, ushbu jamoaning ikki a'zosi bu yerdan boshqalarga qaraganda kechroq ketadi, ularning ushbu yerni tashlab ketganiga 10 yil bo'lgan edi. Buni o'sha atrofda yashovchi mahalliy aholining oqsoqollari va obro'li kishilari guvoh sifatida tasdiqlaydi. Shu sababli Xitoy-Yuz jamoasi Solin jamoasiga qarshi ushbu yerni qaytarishni so'rab shikoyat qiladi.

O'rta Osiyo xonliklari davrida yerdan foydalanish va yer munosabatlarida suvning o'rni beqiyos bo'lgan, biroq mustamlaka ma'muriyati davrida yer munosabatlarida boshqa omillar ham muhim o'rin egallay boshladi. Boshqacha aytganda, avvallari odamlar tabiiy suv manbalari mavjud bo'lgan yerlarga egalik qilishni istagan hamda kamsuv hududlardan qochishga harakat qilgan. Poezd stantsiyalari, turli xil zavod va fabrikalarning qurilishi bilanoq aholi ularning atrofida avval agrar sohaga tortilmagan yerlardan foydalanishga harakat qiladi. Boshqacha aytganda, yangi qurilgan poezd stantsiyalari va zavodlar ularning atrofida muqim yashab qolish va xo'jalik yuritish uchun yangi sharoitlar yaratdi. Xususan, Mirzacho'lda joylashgan Yom volostida Obruchevo deb nomlangan poezd stantsiyasi quriladi. Stantsiya qurilishidan avval uning atrofida yerlar hech

kim tomonidan foydalanilmagan va u hech kimga tegishli bo'lmagan. Biroq stantsiya qurilgandan keyin Obruchevo stantsiyasiga yaqin hududda joylashgan Jarariq qishlog'ida yashovchi Qirq urug' jamoasi bu yerlar ularga tegishli ekanligini da'vo qiladi. Hatto Qirq jamoasi ushbu yerning ma'lum bir qismini o'sha atrofdagi mahalliy aholiga sotadi va ular mazkur yerda karvonsaroylar quradi. Natijada, yildan yilga ushbu yerlarning qadri oshib boradi. Biroq 5 yoki 6 yildan so'ng yana bir urug' jamoasi, - Quyonquloqli Obruchevo stantsiyasi atrofidagi yerlarning egasi ekanligini ta'kidlaydi. Natijada ikki jamoa o'rtasida yer munozarasi kelib chiqadi va u 5 yil davom etadi. Yuqoridagi misollardan farqli ravishda, bu holatda ushbu yerlar Quyonquloqli jamoasiga tegishli ekanligi to'g'risida na huquqiy hujjat mavjud bo'lgan, na bir guvoh bo'lgan. Shu sababli mustamlaka ma'muriyati ushbu masalani yechishda qiyinchilikka duch keladi: bu masala shariat asosida ko'rib chiqilishi kerakmi yoki mustamlaka ma'muriyati chiqargan qonunlar asosida echilishi kerakmi? Bu savolga aniq javob bo'lmagan. Boshqacha aytganda, bu yerda mazkur masalani yechishga qodir aniq huquqiy tizim mavjud bo'lmagan. Biroq, Jizzax Uyezdi boshlig'i ushbu masalani shariat asosida yechishga qaror qiladi. Chunki 1886 yilgi Nizom mahalliy yer munosabatlarini mahalliy odatlar asosida o'rganishni talab qilardi. Natijada, mahalliy qozi ushbu masalani Qirq jamoasi foydasiga xal qiladi. Biroq, ushbu hududning uchastka pristavi Obruchevo stantsiyasi atrofidagi yerni sotishni va sotib olishni ta'qiqlab qo'yadi.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida jamoa yerlari jamoa a'zolari o'rtasida taqsimlana boshlangan. 1886 yilgi “Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risida”gi Nizomning 260-bandida jamoa yerlarini xususiy mulkka o'tkazish to'g'risida aytilgan . Shu sababli, mazkur davrda jamoa yerlarining jamoa a'zolari o'rtasida bo'lib olinganligi to'g'risida bir qancha misollar mavjud. Jumladan, XIX asrda Bog'don volosti Uchma qishlog'i aholisining 40 tanob lalmikor yeri mavjud bo'lgan va ular bu yerdan jamoa tarzida foydalangan. Biroq, 1890 yilda Uchma qishlog'i aholisi Jizzax uyezdi boshlig'iga xat yozib, ushbu jamoa yerini qishloq aholisi o'rtasida taqsimlashni so'raydi. Ushbu taqsimlangan yerlardan aholi

faqatgina ma'lum ekin ekish uchun emas, balki ayrimlari imorat qurib, u yerda yashashni maqsad qilgan. Masalan, Mirzacho'dagi Chashmi Ob volosti Tushbuloq qishloq aholisining lalmikor shudgor yeri mavjud bo'lgan va ushbu yer jamoa ahli tomonidan ekin ekish uchun foydalanilgan. Ma'lum davrdan so'ng, qishloq aholisi ushbu ekin yerlariga imorat solishni xohlaydi. Shu sababli ular ushbu yerni jamoa o'rtasida o'zaro taqsimlab chiqadi va taqsimlangan yerlarning chegarasini aniq ko'rsatish maqsadida o'z qismlarini devor bilan o'rab chiqadi.

XX asr boshlariga kelib jamoa yerlarining taqsimlanish jarayoni yanada kuchaydi. Chunki, 1900 yili "Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risidagi" Nizomning yangi tahriri qabul qilinadi va mazkur Nizomning 263 bandida jamoa yerlari chegaralari bo'lak holda ko'rsatilishi va ulardan davlat soliqlarini undirish nazarda tutilgan. Bu esa Turkistonda yerlarni qismlarga ajratishni tezlashtirdi va mustahkamladi. Natijada jamoa yerlari sekin-asta o'zining chegaralariga ega yer bo'laklariga ajratila boshlandi. Bu mazkur yerlar kimga tegishli ekanligi va soliq to'lovchi kim ekanligini aniq ko'rsatib bergan. Natijada, mustamlaka ma'muriyati soliqlarni har bir hovli hisobidan olmasdan, balki yerning hajmidan kelib chiqqan holda soliq solingan.

Shu bilan birgalikda, XIX asr oxirlarida dehqon va chorvadorlar o'z xo'jalik turmush tarzini saqlab qolishga harakat qilgan. Jumladan, 1890 yilning 23 aprelida Jizzax oqsoqoliga bo'ysunuvchi Muxrkandlik jamoasi nomidan Zokirboy, Usta Avaz Badal o'g'li, Haydarbekboy Ernazar o'g'li va Shokir Botirboy o'g'li Jizzax uyezdi boshlig'iga ariza yozadi. Ular o'z arizalarida Pistalitog' volostidan ismlari noma'lum bo'lgan bir necha chorvadorlar ularning hududiga kelganligi va ularning shudgor yerlariga o'rnashib olganligini ma'lum qiladi. Bundan tashqari, ushbu chorvadorlar ularning ekin ekiladigan yerlarida chorvalarini boqayotganligini ta'kidlaydi. Shu sababli ular Jizzax Uyezdi boshlig'idan ularni o'z joylariga qaytarib yuborishni so'rab ariza yozadi.

Bu davrda faqatgina dehqonlar o'z shudgor yerlarini himoya qilmasdan, balki chorvadorlar ham o'z yaylovlarini himoya qilishga harakat qilgan. Quyidagi arxiv hujjatida keltirilgan ma'lumotlar bunga yaqqol misol bo'la oladi. 1890

yilning 4 iyulida Zomin volostining Beshbuloq qishlog'ida yashovchi jamoa nomidan Rahmonberdi Karimberdi o'g'li tomonidan Jizzax uyezdi boshlig'i nomiga ariza yoziladi. Ariza Qoraquduq mavzesida ushbu jamoaga tegishli bir bo'lak yer mavjud bo'lgan va ushbu yer ularning yaylovi hisoblanganligi haqida edi. Biroq Zomin volostining Jaloir qishlog'ida yashovchi ba'zi kishilar ushbu yaylovda tarvuz, qovun va kunjut ekadi. Shu sababli ushbu jamoa ahli Jizzax uyezdi boshlig'idan ushbu yaylov yeriga ekin ekishni man qilishni so'raydi. Yuqoridagi misoldan ko'rinadiki, Mirzacho'l mahalliy aholisi dehqonchilik yerlari bilan birgalikda yaylov yerlarini ham o'zlarining asosiy yashash manbalaridan biri sifatida e'tirof etgan. Chunki, XIX asr oxiri - XX asr boshlarida chorva mollarini boqishda ma'lum yem-xashaklarni o'z chorvalari uchun to'plash va yig'ib qo'yish holatlari kamdan kam holatlarda sodir bo'lgan, aksincha mahalliy chorvadorlar yil davomida turli xil yaylovlarda boqib yurishgan. Shu sababli, chorva mollarini boqishda tabiiy yaylovlar muhim o'rin tutgan.

## **6-Mavzu: XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Mirzacho'lda yangi qishloqlarning paydo bo'lishi**

### **Reja.**

1. Rossiya imperiyasining ko'chiruvchilik siyosati
2. Mirzacho'lga rus aholisining ko'chib kelishining asosiy sabablari
3. Mirzacho'lda rus qishloqlarining paydo bo'lishi
4. N.K.Romanov tashabbusi bilan turli yillarda 8 ta rus qishlog'i tashkil etilganligi.

Mirzacho'lda rus qishloqlarining paydo bo'lishi nafaqat uni o'zlashtirish ishlari, balki Rossiya imperiyasining ko'chiruvchilik siyosati bilan bevosita bog'liq edi. Rossiya imperiyasi ma'murlari mahalliy iqlim sharoiti va agrar imkoniyatni hisobga olgan holda Turkistonga rus aholisini imperiyaning janubiy gubernalaridan ko'chirib keltirishni lozim topgan. Ko'chib kelganlarning katta qismi vatanlarida dehqonchilik bilan shug'ullangan va xo'jalik yuritish uchun yetarli bo'lmagan miqdordagi yerga egalik qilgan. Turkiston o'lkasida rus qishloqlarining paydo bo'lishi oldindan rejalashtirish asosida olib borilmasdan,

balki tartibsiz, faqat aynan o'sha daqiqada vujudga kelgan ehtiyoj, talab yuzasidan qo'llanilgan, rejasiz, favqulodda chora-tadbirlar asosida olib borilgan.

Boshboshdoqlik bilan amalga oshirilgan bunday tadbirlar natijasida o'lkaga kelgan rus dehqonlarini yangi joylarda ham sarson-sargardon bo'lib, ularning ayrimlari o'z vatanlariga qaytishga, boshqalari esa bir joydan boshqa joyga o'tib yurishga majbur bo'ladilar. Bu holat ma'muriyat vakillarining hisobotlarida ham qayd etilgan bo'lib, ular viloyat harbiy gubernatorlariga rus dehqonlari bir joydan boshqa joyga ko'chib yurishlari, o'lkada ruslarni mustahkam o'rnashib qolishiga imkon bermayotganligi haqida tashvishlanib xabar berar edilar. Masalan, 1880 yilda Avliyo-Ota uyezdining boshlig'i viloyat harbiy gubernatorining ko'rsatmasi bo'lmasa-da, rus dehqonlariga u yerdan bu yerga ko'chib yurishini taqiqlab qo'yadi va hatto ularga vatanlariga qaytib ketishlariga ruxsat bermaydi. Biroq harbiy gubernator bunday choralarga javoban uyezd boshlig'iga o'z vatanlariga qaytishni xohlayotgan ko'chib kelganlarni ushlab turish mumkin emas, deb hisoblashini ma'lum qiladi. Shu tariqa 1880 yilgacha ko'chib kelganlarni joylashtirish betartib kechdi va kutilgan natija bermadi.

1881 yil 3 martda Turkiston general-gubernatori qishloqlarga iste'fodagi quyi mansabdorlarni qabul qilish haqida farmoyish chiqaradi. Hujjatda ularga meros mulki sifatida foydalanish huquqi bilan har biriga 7 desyatinadan er berilishi ko'rsatib o'tilgan edi. Ushbu yerlarni ijaraga yoki begonaga berish man qilingan. Yer maydoni olganlarning barchasiga yerga birinchi yildan boshlaboq ishlov berish majburiyati yuklangan. Ushbu ko'rsatma o'lka ma'muriyatining ruslarni joylashtirish bo'yicha dastlabki farmoyishi bo'lib, harbiy xarakterga ega bo'lgan va iste'fodagi, zahiradagi quyi mansabdorlarni joylashtirishni belgilab bergan.

1883 yilda Turkiston general-gubernatori M.G.Chernyaev tomonidan yangi farmoyish chiqarilgan. Unga ko'ra, O'rta Osiyoga faqat kelib chiqishi ruslardan bo'lgan shaxslarni ko'chirishga ruxsat berilgan.

Yangi qoidaga muvofiq yer maydonlari ko'chib kelganlarga 10 yildan keyingina meros sifatida berilgan, buning uchun ular yerga 10 yil mobaynida uzluksiz ishlov berishlari lozim edi. Yer egasi o'z yer maydonini kelib chiqishi rus

bo'lgan boshqa shaxsgagina berishi mumkin edi. Ko'chib kelgan vafot qilgan taqdirda, yer uning vorislariga xuddi o'sha cheklovlar bilan o'tgan. Mazkur qoidalar ko'chib kelganlarni o'lkaga mustahkam o'rnashtirib olish maqsadini ko'zlagan edi. Ammo ushbu qoidalar ham uzoq amal qilmadi. Mahalliy ma'muriyat yangi qishloqlarga mutlaqo e'tiborsiz bo'lib, muhtoj oilalarga o'z vaqtida ssuda ajratilmaganligi sababli, ular dehqonchilikni yo'lga qo'ya olmagan, shu tufayli yangi ko'chib kelganlarning ko'pchiligi o'z yerlarini tashlab, yangi yerlarga ko'chib ketardi.

1883 yilda rus qishloqlarini tuzish uchun maxsus komissiya tuzilib, unga rus dehqonlarini Sirdaryo viloyatiga joylashtirish qoidalarini ishlab chiqish vazifasi yuklatildi. Ammo komissiya faoliyati samarasiz bo'lib, 1885 yilda tarqatildi.

1886 yilda qabul qilingan "Turkiston o'lkasini boshqarish haqida Nizom"da o'lkaga rus dehqonlarini joylashtirish qoidalari qonuniy asosda belgilab beriladi. Unda rus dehqonlariga faqatgina bo'sh davlat yerlariga ko'chib ketishga ruxsat berilgan edi. Ruxsat birinchi navbatda Turkiston harbiy okrugining quyi zahiradagi mansabdorlariga beriladi. Ularga qator imtiyozlar ham belgilangan bo'lib, ko'chib kelganlarga bo'sh davlat erlaridan har biri 10 desyatinadan oshmagan ekin maydonini ajratish; 10 yil davomida davlat yer solig'ini to'lashdan ozod qilish hamda har bir kishiga bir marta 100 rubldan oshmagan miqdorda nafaqa berish ko'zda tutilgan.

Turkiston o'lkasi Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olingach, katta yer egalariining ijtimoiy mavqeini pasaytirish maqsadida mahalliy yer egaligi shakllarining barcha turlari davlat yerlari deb e'lon qilingan bo'lib, unga nafaqat o'troq dehqonlarga qarashli yerlar, balki ko'chmanchilarning yerlari ham davlat yerlariga kiritilgan. Bo'sh yerlar esa asosan qo'riq va bo'z yerlar bo'lib, ularni o'zlashtirish uchun katta xarajatlar sarflash, sug'orish tarmoqlarini barpo etish zarur edi.

Bunday sharoitda o'lkaga ko'chib kelgan dehqonlarni joylashtirish jarayoni juda ziddiyatli kechgan. Berilgan imtiyozlar tufayli ko'chib kelganlarning ko'payib ketishi, o'lka ma'muriyatini ularni kutib olishga tayyor emasligi kabi qator

muammolar mavjud edi. Ko'chib kelganlarga yangi yer berish imkoni yo'qligi sababli ular ilgari tuzilgan qishloqlarga joylashtirilgan. Yoki mahalliy aholi yangi ko'chib kelganlar tomonidan siqib chiqarilgan.

Qariyb 20 yillik davr mobaynida (1865-1885 y.) Mirzacho'l hududida bironta ham rus qishlog'i barpo etilmagan. Turli uyezdlardan chaqirilgan ishchilar, dehqonlar, kanal qazuvchilar bu yerdagi noqulay sharoit tufayli doimiy yashash uchun qola olmagan. Hukumat tomonidan amalga oshirilgan chora-tadbirlar samarasiz bo'lib, bu davrda Mirzacho'lga ko'chirib keltirilganlarning o'troqlashish jarayoni yuz bermagan.

1891-1892 yillarda Rossiyaning Evropa qismida yuz bergan qurg'oqchilik tufayli Turkistonga ish va oziq-ovqat topish maqsadida ko'plab dehqonlar, ishsizlar oilalari kirib kela boshladi. Ko'chirish boshqarmasining mansabdori N.Gavrilov hisobotida, 1892 yilda Turkistonga ko'chib kelgan rus muhojirlarining soni 3000 ta oilaga etganligi ko'rsatilgan, lekin ko'chib kelganlarning aynan necha nafari Mirzacho'lga kelib joylashganligi aniq ko'rsatilmagan. Bu oqim 1897 yilgacha to'xtovsiz davom etib, shu davr ichida Turkistonda 17 ta yangi qishloqlar yuzaga kelgan. Ammo bu oqimning tobora kuchayib borishi natijasida ko'chib kelganlarni yer bilan ta'minlash tobora muammoga aylanib qolayotganligi tufayli, 1897 yilda general-gubernator farmoniga ko'ra Davlat mulklari va dehqonchilik boshqarmasi tomonidan ziroatchilik uchun yaroqli hududlarga aholini joylashtirish to'xtatilgan. Oradan 6 yil o'tib, 1903 yilda harbiy vazirlik qoshidagi ko'chirish va ko'chish masalasini tartibga solish komissiyasi rus dehqonlarini davlat yerlariga ixtiyoriy ko'chib kelishlari uchun qonuniy ruxsat bergan.

Rossiyada yuz bergan 1905 yil rus inqilobidan keyin 1906 yildan boshlab Turkistonga yana ko'plab dehqonlar va kambag'al ishchilar ko'chib kela boshlagan. Shu yilning o'zida Turkiston hududiga kelgan 2000 ta oila uy-joy bilan ta'min etishni so'rab murojaat qilishdi. Kelgan oilalar Farg'ona, Sirdaryo va Samarqand viloyatlariga joylashtirilgan. Ko'chib keluvchi aholining ma'lum bir qismi ma'muriyat tomonidan belgilangan yerlarga joylashtirilgan. Shu bilan birga

1908-1910 yillarda, ma'muriyat ruxsatisiz, o'zboshimchalik bilan ko'chib kelgan xo'jaliklar soni ham ko'paya borgan.

Rossiya imperiyasi hukumati tomonidan 1903 yil 10 iyunda chiqarilgan qonunda ko'chib kelganlarga ma'lum imtiyozlar berilgan. Chunonchi ular dastlabki 5 yil davomida ular vaqtinchalik obrok solig'idan va mahalliy hokimiyat idoralari tomonidan yuklatilgan pul bilan hisoblanadigan majburiyatlardan ozod qilingan, 5 yildan so'ng vaqtinchalik obrok solig'ini to'lash, miqdori belgilab qo'yilgan mahalliy majburiyatlarni 3 yil davomida yarmini to'lash, o'lkaga ko'chirilgan paytda 15 yoshga to'lgan shaxslarni 6 yil davomida harbiy majburiyatlardan ozod qilish kabi imtiyozlar berilgan.

Yangi qonun chop etilganidan keyin ichki ishlar vaziri nomiga O'rta Osiyoga ko'chib ketish haqida ko'plab arizalar berilgan. Arizalar nafaqat ichki guberniyalarda yashovchilardan, balki Sibirga ko'chib kelganlaridan keyin bu yerda o'z ishlarini tartibga sololmay, butunlay xonavayron bo'lgan sobiq sibirlik ko'chib kelganlar tomonidan ham berilgan.

Davlat Dumasi tomonidan ma'qullangan va 1914 yil 21 iyunda qabul qilingan "Samarqand viloyati, Xo'jand Uyezdida Romanov kanali tizimi orqali Mirzacho'lda sug'oriladigan yer maydonlarini ajratish to'g'risida"gi yangi qonunga muvofiq Mirzacho'lning sug'orilgan yerlariga o'rnashish maqsadida rus a'yonlaridan barcha nasroniy mazhablardagi, tabaqaviy farqlanishsiz, ma'lum moddiy ta'minotga ega bo'lganlar yuborilishi belgilangan.

Mirzacho'lga rus aholisini ko'chib kelishining asosiy sabablaridan biri bu yerda amalga oshirilgan irrigatsiya ishlari bo'lib, sug'orish tarmoqlarini barpo etish maqsadida dastlabki rus qishloqlari tashkil etilgan(4, 5-ilovalarga qarang). Mirzacho'l vohasida ilk rus qishloqlarining tashkil topishi sanalari haqida turli ma'lumotlar mavjud. Masalan, Samarqand viloyati harbiy gubernatori «Nikolaevskiy» qishlog'ini 1893 yilda tashkil topgan degan ma'lumotni keltirgan bo'lsa, polkovnik N.S.Likoshin ma'lumotiga ko'ra qishloq 1898 yilda tashkil etilgan. V.F.Karavaev «Nikolaevskiy» qishlog'ini 1891 yilda tashkil etilgan deb, hisoblaydi. K.K.Palen keltirgan ma'lumotlarga ko'ra «Nikolaevskiy» qishlog'i



1881 yilda tashkil topgan. K.K.Palen bu sanaga N.K.Romanov tashabbusi bilan Mirzacho'lga yangi kanal qazish uchun ko'chib kelgan ishchilarni vohaga kelgan vaqtini asos qilib keltirgan bo'lishi mumkin. «Verxniy Volinskiy» qishlog'ining tashkil topgan vaqtini I.Z.Odishelidze 1889 yil, N.S.Likoshin va V.F.Karavaevlar esa 1897 yil bilan ko'rsatib o'tadilar (6-ilovaga qarang).

"Turkestanskie vedomosti" gazetasida yozilishicha, «Nadejdinskiy» 1885 yilda Samarqand viloyatida tashkil topgan birinchi rus qishlog'i bo'lgan.

V.F.Karavaev «Oltin O'rda» raz'ezdi, «Golodnaya Step'» stantsiyasi va «Chernyaevo» stantsiyalari yonida tashkil topgan qishloqlar haqida to'xtalib o'tgani holda, ularning qachon tashkil topganligi haqida ma'lumot bermagan. Arxiv ma'lumotlariga ko'ra «Chernyaevo» qishlog'i 1899 yilda tashkil topgan.

Mirzacho'l tarixiga tegishli arxiv hujjatlari va matbuot materiallari asosida dastlabki rus qishloqlarining tashkil topishi sanasini A.V.Stanishevskiy quyidagicha keltiradi: «Nadejdinskiy» (1886), «Romanovskiy» (1887), «Nikolaevskiy» (1891), «Obetovanniy» va «Verxniy Volinskiy» (1896), «Konnogvardeyskiy» (1897), «Duxovskiy» (1898), «Spasskiy» (1907), «Naxalovka» (1909), «Alekseevskiy» (1913).

Mirzacho'lda irrigatsiya ishlarining amalga oshirilishi jarayonida Sirdaryoning chap sohilida shaxsan N.K.Romanov tashabbusi bilan turli yillarda 8 ta rus qishlog'i tashkil etilgan. Bular «Nikolaevskiy», «Konnogvardeyskiy», «Romanovskiy», «Nadejdinskiy», «Obetovanniy», «Verxniy Volinskiy», «Nijniy Volinskiy» va «Zaporojskiy» qishloqlari edi. Mirzacho'l hududida birinchi rus qishlog'i 1885 yilda N.K.Romanov tomonidan tashkil etilgan bo'lib, qishloq aholisi ko'chirib keltirilgan Zaporoje kazaklaridan iborat bo'lganligi uchun «Zaporojskiy» nomi bilan atalgan. Kanal qurilishi uchun doimiy ish kuchiga ega bo'lish uchun birinchi galda ishchilarni turar-joy bilan ta'minlash zarur edi, shu sababli sug'orish ishlari bilan shug'ullanuvchi idora yonida birin-ketin yerto'la va uylar paydo bo'la boshlagan. Kanal qurilishi ishlariga N.K.Romanov rahbarlik qilgan. «Zaporojskiy» qishlog'i mavjud bo'lgan 11 yillik davr mobaynida bu yerga 300 ta xo'jalik kelib-ketib yashab turgan. Qishloq 1897 yilda zavolga yuz

tutgan, natijada 1899 yilga kelib butunlay tashlab ketilgan. Qishloq unumdor tuproqli yerda joylashgan, ammo bu yerlarni sug'orish imkoniyati bo'lmaganligi sababli, qishloq aholisi dehqonchilik bilan shug'ullanmagan. Kanal qurilishi ishlari bo'yicha Bosh idora bu qishloqda faoliyat ko'rsata boshlagach, bu yerda hayot yana jonlana boshlagan. N.K.Romanov «Zaporojskiy» qishlog'ida yirik qo'rg'on qurdirgan.

N.K.Romanov Bekobod yaqinidagi Qo'sh-Tuyoq qishlog'i atrofida 50 desyatina yerni ekin maydoni uchun va 19 desyatina yerni qishloq qurish maqsadida oqsoqollikdan sotib olishga qaror qiladi. Yerni ma'lum qismiga naqd pul beradi, qolgan qismi uchun Buxor ariqni ishga tushirishga va 5 ta tegirmon qurib berishga va'da beradi. 1894 yil 31 avgustda Samarqand viloyati gubernatori yordamchisi general-mayor Pukalov rahbarligidagi komissiya tayyorlagan hisobotda qayd etilishicha, «Zaporojskiy» qishlog'ida N.K.Romanov qo'rg'oni atrofida xom g'ishtdan qurilgan 86 ta uy mavjud bo'lib, uylardan 20 tasi yashash uchun mo'ljallangan, 12 ta uyda knyaz ishchilari oilasi istiqomat qilgan, ammo ular qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanmagan. «Zaporojskiy» qishlog'i aholisi 10 yil davomida, ya'ni 1896 yilda 300 ta oilaga etgan edi. Aholi soni vaqti-vaqti bilan ko'payib, goho kamayib turgan. Asosiy aholi kanal qurilishida qatnashib kun kechirganligi sababli, 1896 yili kanal qurilishi to'xtatilishi munosabati bilan yangi maydonlarga ko'chib keta boshladilar. Mana shu sabablarga ko'ra 1897-1899 yillar davomida «Zaporojskiy» qishlog'i aholisi boshqa qishloqlarga ko'chib ketgan.

«Zaporojskiy» qishlog'i aholisi dastlab sidqidildan faoliyat olib borgan. Kanal qurilishi bo'yicha idora qishloq markazida bo'lgan, shu sababli qishloqda savdo markazi, cherkov, qishloq aholisining farzandlari uchun o'yin maydonlari ham ajratilgan. 1896 yilda kanal qazish ishlari to'xtatilishi munosabati bilan aholi ish izlash, pul topish maqsadida hududni tashlab keta boshlagan. 1899-1913 yillarda qishloq butunlay bo'shab qolgan.

N.K.Romanov tashabbusi bilan Chol-Tuqay degan joyda Sirdaryo sohilida ham kichik qishloq tashkil etilgan. Bu erga dastlab 3 ta oila kelib o'rtnashgan.

1886-1888 yillar davomida qishloq 30 ho'jalikdan iborat bo'ldi. 1892 yilga kelib 50 xonadonga etgan. Knyaz ajratgan pul mablag'i evaziga bunyod etilgan bu qishloq «Nadejdinskiy» deb nomlangan.

1899 yilda rasmiy ruxsatnoma bilan yashayotgan aholi qishloqda 215 nafarni tashkil etgan. 1903 yilga kelib qishloqda 60 ta hovli barpo etilgan. 1907 yilda qishloqda mavjud 95 ta xo'jalikda 401 nafar kishi istiqomat qilgan. 1907-1914 yillar davomida qishloqda xo'jaliklar soni 109 tagacha etgan edi. «Nadejdinskiy» qishlog'ining aholisi dastlab «Tsar-plotina» yoki «Tsarevna» deb nom olgan kanal tarmog'idan foydalangan.

1887 yili Sirdaryoning chap sohili yaqinida N.K.Romanov tomonidan 13 oiladan iborat yangi «Romanovskiyy» nomli qishlog'i barpo etilgan. 1892 yilga kelib, ularning soni 20 taga ko'paydi. 1899 yili general-gubernator S.M.Duxovskiyni tashabbusi bilan qishloqqa 42 ta xo'jalik joylashtirilgan. Shu yilda ruxsatnoma va tegishli hujjatga ega bo'lgan 81 nafar ko'chib keluvchilar ro'yxatga olingan. Nikolay I kanalidan foydalana boshlagan «Romanovskiyy» qishlog'i aholisi bog'dorchilik va qishloq xo'jalik ishlari bilann muntazam shug'ullana boshlagan. 1907 yilgi ma'lumotlarga ko'ra qishloqda mavjud 106 xo'jalikda 350 nafar kishi istiqomat qilgan.

1891 yili N.K.Romanov tashabbusi bilan «Nikolaevskiyy» qishlog'i tashkil etilgani. Qishloq Sirdaryo sohilidagi Uyas-ko'l va Qiyot-ko'l qirg'oqlari oralig'ida joylashgan bo'lib, agronom P.V.Poznyakov hisobotida Zaporozhe qishlog'idan 25 verst, taxminan 27 km, suv oqimi bo'ylab pastlikda joylashgan. V.F.Karavaevning ma'lumotida esa «Zaporozjskiyy» qishlog'idan 20 verst, ya'ni 21,2 km pastlikda, deb ko'rsatiladi. Bu o'rtadagi farq balki aniq o'lchamsiz hisobga olingan bo'lishi mumkin. Ayrim ma'lumotlarga ko'ra, Bekoboddan Sirdaryo oqimi bo'ylab tashkil etilgan bu qishloqning tog' etagida joylashgan kichkroq qismi Eski Nikolsk deb, tog'da tashkil etilgan katta qismi Yangi Nikolsk deb atalgan. 1891 yilda qishloq aholisi jami 663 nafarni tashkil etib, 159 xo'jalikdan iborat bo'lgan. bo'lsa, 1899 yilda qishloqdagi aholi soni 216 nafarni tashkil etgan. Bunda qishloqda yashash uchun ruxsatnoma va tegishli hujjatga ega bo'lgan kishilar hisobga olingan

bo'lishi kerak. 1907 yilda qishloqdagi 27 xo'jalikda jami 197 nafar kishi istiqomat qilgan.

«Obetovanniy» qishlog'i 1888 yilda N.K.Romanov tomonidan tashkil etilgan bo'lsa-da, bir necha yillar davomida bu qishloq rivojlanmagan. Faqatgina 1896 yilda bu erga Orenburg kazaklaridan 15 xo'jalik ko'chib kelib (ular 1886 yildan buyon «Zaporojskiy» qishlog'ida istiqomat qilar edilar), kanal qurilishi va chorvachilik bilan shug'ullana boshlagan. Dastlab kazak oilalari mahalliy qozoqlar bilan aralash yashaganlar. Ular o'zlari qurgan vaqtinchalik turar-joylarda istiqomat qilishgan. 1899 yilda 89 nafar rasmiy hujjatga ega bo'lgan kishi istiqomat qilgan. 1907 yilda qishloq aholisi 149 nafarni tashkil etgan. 1904 yilda to'qay yerlaridan ularga ajratilgan yerlarning ozligi tufayli, «Obetovanniy» qishlog'i rivojlanmagan. 1912 yilda Samarqand viloyatining harbiy gubernatori general-mayor I.Z.Odishelidze bu yerda bo'lib, Mirzacho'dagi boshqa rus qishloqlariga nisbatan bu qishloq aholisining nihoyatda nochor ahvolda ekanligini ta'kidlab, zudlik bilan ularga yangi joy ajratishni taklif qiladi. Chunki, suv toshqini bo'lgan vaqtda qishloq hududini suv bosib ketishi xavfi bo'lgan va ekin maydonlari joylashgan Shirquduqdan magistral kanal qurilishi rejalashtirilgan edi. Shu sababga ko'ra Ko'chiruvchilik boshqarmasi 1912 yilda qishloq aholisiga qo'shimcha yer ajratish haqida loyiha tayyorlagan.

1896 yilda Rossiyaning janubiy qismida yuz bergan qurg'oqchilik va ocharchilik tufayli kubanliklar najot so'rab Turkistonga kelishdi. Kuban oblastidan kelgan aholi sektant–molokanlar (pravoslaviedagi diniy oqim vakillari)lardan iborat bo'lib, ular «Obetovanniy» qishlog'idan 6–7 verst pastda, Sirdaryo bo'yiga kelib o'rnashgan. Qishloq dastlab «Volinskiy» deb atalgan. Keyinchalik qishloq aholisi orasida diniy kelishmovchiliklar yuz berganligi sababli, aholining bir qismi bu yerdan ketib, «Nijniy Volinskiy» qishlog'ini tashkil etgan. Shundan so'ng bu qishloq «Verxniy Volinskiy» deb atala boshlagan. Kubanliklar lalmi dehqonchilik va chorvachilik bilan mashg'ul bo'lgan, chigirtka bosqinidan so'ng qishloq aholisi pul topish maqsadida turli ishlar bilan shug'ullangan. «Verxniy Volinskiy» nomini olgan kubanliklar qishlog'ining aholisi baliqchilik va chorvachilik bilan hayot

kechira boshlagan. Ular mahalliy aholining lalmi bug'doyzorlarida qo'l kuchi bilan bug'doy o'rgan va sut mahsulotlarini sotish bilan shug'ullangan. Shu tariqa Kuban sektantlari va molokanlari o'zlariga Mirzacho'lda yangi qishloq tashkil etgan. 1899 yilda rasmiy ruxsatnomaga ega bo'lgan qishloq aholisi 215 nafarni tashkil etgan. 1907 yilda «Verxniy Volinskiy» 89 kishi istiqomat qilgan. Aholining tarkibidagi bunday keskin o'zgarishni qishloq aholisini boshqa qishloqlarga ketib qolishi bilan asoslash mumkin.

1897 yilda Sirdaryo oqimi bo'ylab 4–5 verst masofada N.K.Romanov ruxsati bilan 10 ta xo'jalik uchun joy ajratilgan. Asosiy aholisi baptistlardan iborat bo'lgan qishloq aholisi dastlab «Obetovaniy» va «Verxniy Volinskiy» qishloqlaridan ko'chib kelgan, ular yangi «Nijniy Volinskiy» qishlog'ini tashkil etgan. Qishloqda hukumat ruxsatnomasiga ega 76 nafar kishi bo'lgan. Qishloq ahli Kavkaz va Rossiyaga xat yozib, u yerdagi maslakdoshlarini ko'chib kelishga da'vat etgan. Bir yil o'tgach, «Nijniy Volinskiy» qishlog'i aholisi 64 ta ho'jalikdan iborat bo'lgan. 1904 yilda ho'jaliklar soni 105 taga etgan. Ular sug'orma dehqonchilik bilan endi shug'ullana boshlaganliklari tufayli, kun kechirishlarining asosiy manbai chorvachilik va baliqchilik bo'lgan. 1907 yilda bu yerda jami 240 nafar kishi istiqomat qilgan.

N.K.Romanov tomonidan tashkil etilgan so'nggi qishloq «Konnogvardeyskiy» bo'lib, qishloq 1897 yili Nov va Chinoz o'rtasidan o'tuvchi katta yo'l kesishgan joyda tashkil etilgan. Bu qishloq «Nikolaevskiy» qishlog'idan 12 verst uzoqlikda joylashgan edi. Yangi ko'chib kelgan sektant-molokanlar dastlab, «Orliniy» va «Sokoliniy» nomli ko'l bo'yidan yer olishgan. 1899 yilda qishloqda 83 nafar rasmiy ruxsatnomaga ega bo'lgan aholi istiqomat qilgan. 1907 yilda 111 nafar kishidan iborat bo'lgan. 1914 yilgacha bo'lgan ma'lumotlarda qishloq aholisi 28 xo'jalikdan iborat ekanligi ko'rsatilgan.

1898 yili hukumat va yer xo'jaligi boshqarmasi boshlig'i S.Yu.Rauner tashabbusi bilan katta yo'l yoqasidagi temir yo'l stantsiyasi («Golodnaya step») yaqinida general-gubernator S.I.Duxovskiy sharafiga davlat tomonidan 70-100 xo'jalikka mo'ljallangan qishloq qurish ishlari boshlab yuborilgan. Rejaga ko'ra,

«Duxovskiy» qishlog'ida dastlab 70 xo'jalikka mo'ljallangan uylar qurilgan. Afsuski, sharoitning og'irligi, sug'orish ishlarining to'g'ri yo'lga qo'yilmaganligi va qishloqning ma'lum qismida balchiq va ko'l zahirasi saqlanganligi sababli, 1906 yilgacha qishloqda yashovchi aholining soni ko'paymagan. Faqatgina temir yo'l ishchilaridan iborat 10 ta xo'jalik yashagan. Xuddi shu yilda qishloqqa Sibirdan ko'chib kelgan 16 xo'jalikdan tashqari, «Chernyaevo» stantsiyasi xizmatchilari va Mirzacho'ldagi boshqa rus qishloqlaridan 60 ta xo'jalik kelib joylashish istagini bildirgan. 1907 yilda qishloq aholisi soni 52 nafardan iborat bo'lgan. Shu yilda boshqa rus qishloqlaridagi ayrim dehqonlar, xususan «Duxovskiy» qishlog'i yaqinida sug'orma dehqonchilik qilish uchun imkoniyat yetarli ekanligini ko'rgan «Nijniy Volinskiy» qishlog'i dehqonlari ularga yer ajratib berishni iltimos qilishgan. 1908 yilga kelib bu qishloqdagi xo'jaliklar soni 65 tani tashkil etgan.

Mirzacho'lga ko'chib kelib, bu yerda sug'oriladigan ekin maydonlariga egalik qilish istagida bo'lganlar soni ko'paygan. 1906 yilda hukumat mavjud vaziyatni o'rganib, Mirzacho'l temir yo'l stantsiyasi yaqinidagi tajriba yerlaridan jami 1000 desyatina yerni har biri 10 desyatınadan bo'lgan 100 ta xo'jalik ehtiyojlari uchun ajratishga ruxsat bergan. Natijada, 1898 yilda tashkil etilgan Duxovskiy qishlog'i negizida vohada yangi qishloq vujudga kelib, avliyo Spas xotirasiga «Spasskiy» deb atalgan. 1907 yili «Spasskiy» nomini olgan bu yangi aholi manzilgohiga 65 ta oila kelib joylashgan. 1908 yilda Turkiston general-gubernatori ad'yutant P.I.Mishenko Ko'chiruvchilik boshqarmasiga ko'chib kelayotgan dehqonlar va iste'foga chiqqan harbiylarni yer va uy-joy bilan ta'minlash haqida ko'rsatma bergan. Ko'chib kelganlar uchun ajratiladigan yer maydoni miqdori aniqlash bo'yicha ma'muriyatga topshiriq berilgan. Har bir xo'jalik 10 desyatina miqdoridagi yer bilan ta'minlanishi ko'zda tutilgan edi. Ko'rsatmaga asosan bu yerga 86 ta oila ko'chib kelgan va 56 ta uy qurilgan. Mana shu yilda ko'chiruvchilik idorasi amaldorlaridan biri bo'lgan Molchanov rahbarligi ostida topograf Ivanov tomonidan Nikolay I kanali atrofidan ko'chib keluvchilar uchun 150 ta yer maydoni ajratib berish ko'zda tutilgan.

1909 yilda bu yerda bo'lgan knyaz Masalskiy uch yil mobaynida yer va hovli oluvchilarga har bir desyatina yer uchun 4 rubl 40 kopeyka miqdorida to'lash sharti qo'yilgan maydonlarni ko'zdan kechirib, ko'chib kelganlar bilan suhbatlashgan. 1909 yilda «Spasskiy» qishlog'ida yangi xo'jaliklar soni 140 taga etgan.

Keyinchalik «Spasskiy» va «Duxovski» qishloqlari ma'muriy jihatdan birlashgan va shahar tipidagi qishloq paydo bo'lgan. 1911–1914 yillarda yagona «Spasskiy» nomi bilan ma'muriy hujjatlarda tan olingan, bu vaqtda qishloq aholisi 302 ta oiladan iborat bo'lgan. Vaqt o'tgach, qishloq temir yo'l stantsiyasi nomi bilan Golodnaya step shahri deb atalgan. 1917 yilgi aholini ro'yxatga olish ma'lumotlariga ko'ra shaharda 6977 nafar kishi istiqomat qilgan. Mana shu tarzda bugungi Sirdaryo viloyatining markazi Guliston (1961) shahri shakllangan.

1905–1907 yillarda Rossiyada bo'lib o'tgan siyosiy voqealar rus dehqonlarining vohaga ko'chib kelish jarayonini kuchaytirgan. Mirzacho'lda yangi rus qishloqlari paydo bo'la boshlagan, ko'chib keluvchi aholining bir qismi Davlat uy-joy bilan ta'minlash boshqarmasi tomonidan ko'rsatilgan yerlarga joylashtirilgan.

Rossiyadan kelgan rus dehqonlarining bir qismi ma'muriyat ruxsatini kutmasdan, bo'sh davlat yerlarini o'zboshimchalik bilan egallab olib, yangi qishloqlarni tashkil etgan. 1908 yilda «Nijniy Volinskiy» qishlog'i yaqinidagi «Axmonko'l» ko'li atrofiga baliq ovlash va baliq sotish bilan shug'ullanish maqsadida 4 ta xo'jalik ruxsatsiz ko'chib kelgan. 1909 yilning bahorida 104 oila ko'chib kelgach, Samarqand viloyati harbiy gubernatori general-leytenant A.S.Galkin ularga bu yerda vaqtinchalik yashash uchun yerto'lalar qurishga ruxsat bergan. 1909 yilda Farg'onadan yana 4 ta oila ko'chib kelib, bu yerga o'rnashgan. Ular ko'l atrofida 130 xo'jalikka mo'ljallangan, har biri 1 desyatindan iborat yer maydonlarini o'zboshimchalik bilan ajratib olgan. 1909 yilning boshlarida bu yerda 120-150 xo'jalikdan iborat katta qishloq mavjud bo'lgan. O'zboshimcha holda kelgan bu xo'jaliklar 1909 yildan e'tiboran ma'muriyat ruxsatisiz davlatga tegishli yerlarda o'zlariga uylar qura boshlagan. Shu sababli bu qishloq nomi

«Naxalovka» deb yuritila boshlangan. V.F.Karavaev bergan ma'lumotga ko'ra, «Naxalovka» qishlog'i temir yo'l stantsiyasi atrofida tashkil topgan «Sirdarinskiy» qishlog'idir. "Turkestanskije vedomosti"da yozilishicha esa, Sirdaryo stantsiyasi yaqinida va undan 15 verst uzoqlikda, «Axmonko'l» ko'li atrofida o'zboshimchalik bilan ikkita qishloq tashkil etilgan bo'lib, ulardan biri stantsiya qishlog'i – «Naxalovka», ikkinchisi esa ko'l yonida joylashgan bo'lib, «Axmankulovka» deb atalgan.

Sirdaryo sohilidagi ayrim notekis yerlar va ko'l atroflari Davlat yer boshqarmasida sug'orishdan tashqari hisoblanganligi uchun mahalliy aholi bu yerlarda chorvachilik bilan band bo'lgan. Mahalliy aholi ko'l atrofidagi yerlarni ko'chib kelgan ruslar tomonidan egallab olinishidan noroziliklari haqida ko'chib keluvchilar bilan shug'ullanuvchi boshqarmaga ma'lum qilishgan. Bunga javoban boshqarma ko'chib kelgan aholini boshqa yerga ko'chib ketishini e'lon qilgan. Pul topish va daromad izlash maqsadida bir qancha oila temir yo'l stantsiyalari va boshqa qishloqlarga ko'chib ketgan. 1910 yil boshlariga kelib, ular 130 ta oilaga ko'paygan.

Ma'muriyat tomonidan ogohlantirilgan bo'lishiga qaramay, hukumat ularni yer bilan ta'minlashini kutib, «Axmonko'l» da 1910 yil oxirida 27 ta oila qolgan. Dehqonchilik qilish uchun yerga ruxsat berilmasa-da, bu yerga yangi xo'jaliklar ko'chib kela boshlagan. 1911–1912 yillarda Ahmonko'l atrofiga 240 ta oila kelib o'rnashgan. Mahalliy hukumat tomonidan yer bilan ta'minlanmaganligi sababli, 1913 yilda 112 ta oila qolgan.

Sirdaryo temir yo'li stantsiyasidan 7verst (7,5 km) shimolda «Chorshanba» bozori mavjud bo'lib, mahalliy aholi tomonidan bu yerda har hafta mingga yaqin qoramol, qo'y va echkilar sotilgan. Ko'chiruvchilik boshqarmasi Sirdaryo sohili yaqinida savdo ishlab chiqarish markazini tashkil etish rejasini ishlab chiqqan. Rejada qishloq yirik savdo va ta'minot markaziga aylanishi uchun ko'plab aholini joy bilan ta'minlash zarurligi va aholi tarkibi savdogar, hunarmand va turli ishlab chiqarish sohasi xodimlaridan iborat bo'lishi lozimligi ko'rsatilgan. Bu reja ko'chib keluvchilarga ma'lum bo'lgach, qisqa vaqtda bu yerga ko'chib kelishni



hohlagan 3500 nafar kishidan ariza tushgan. 1913 yilning kuzida Sirdaryo temir yo'li qishlog'ining qarama-qarshisida yirik savdo ishlab chiqarish markazi tashkil etilgan. Bu qishloq general-gubernator A.V.Samsonov nomi bilan «Samsonovka» deb yuritila boshlangan. 1914 yil 20 avgustda qishloq aholisi jang maydonida bevaqt vafot etgan A.V.Samsonovning bevaqt o'limi munosabati bilan yig'ilish o'tkazib, uning xotirasi uchun kelgusida bu yerda uning nomi bilan ataluvchi shahar barpo etish haqida qaror qabul qilgan. 1917 yilda bu yerda 40 nafar qarovsiz qolgan bolalarga mo'ljallangan yetimxona ochilgan. Yuqorida eslatib o'tilgan «Naxalovka» qishlog'i va ushbu savdo-sanoat markazi negizida keyinchalik vujudga kelgan shahar bugungi kunda Sirdaryo shahri deb ataladi.

Ko'chiruvchilik boshqarmasi tomonidan Sirdaryo sohili yaqinida savdo-sanoat markazini tashkil etish rejasi ishlab chiqilgan. «Sirdarinskiy» qishlog'i tashkil topishi 1907-1908 yillarga to'g'ri keladi, bu vaqtda bu yerda temir yo'l stantsiyasi faoliyat yurita boshlagan. Rossiyaning Evropa qismidan kelgan 65 xo'jalik ularga Sirdaryo temir yo'l stantsiyasi atrofidan yer maydoni ajratishlarini so'rab o'lka ma'muriyatiga murojaat qilgan. Qishloq aholisini nafaqat ko'chib kelgan rus dehqonlari, temir yo'l stantsiyasidan ish izlab kelganlar ham tashkil etgan. 1908 yilda bu qishloq 25 ta xo'jalikdan iborat bo'lgan bo'lsa, 1913 yilda 32 ta xo'jalikdan iborat bo'lgan.

1913 yil mart oyida Mirzacho'lning shimoli-sharqiy qismida kanal tarmoqlarini va sug'oriladigan maydonlarni kengaytirish maqsadida yangi yer maydonlari tashkil etilgan. Ana shunday hududlardan biri O'rta Osiyo temir yo'lining 121-raz'ezdi yonida tashkil etilgan «Veliko Alekssevskiy» qishlog'i bo'lgan. Qishloq Mirzacho'lning Romanov kanali orqali sug'oriladigan yer fondi hisobidan ajratilgan yerda, Sirdaryo temir yo'l stantsiyasidan Golodnaya step temir yo'l stantsiyasi tomon 12 verst uzoqlikdagi hududda tashkil etilib, 1913 yil 25 noyabrda unga Rossiya imperiyasi shahzodasi Aleksey nomi berilgan. Qishloq Romanov kanali qurilishi yakunlangan vaqtda (1913 yil, 5 oktyabr) tashkil topganligi sababli suv bilan o'sha vaqtdayoq ta'minlangan. Qishloq aholisiga xo'jaliklarini xutor (yakka tartibda xo'jalik yuritish) va otrub (quloq xo'jaliklarini

ko'paytirish maqsadida Rossiya hukumati ma'murlari tomonidan jamoaga qarashli yerlardan kesib, o'ziga to'q dehqonlarga xususiy mulk qilib berilgan yer maydoni) shaklida tashkil etishlari uchun 8 dan 11 desyatinagacha yer maydoni ajratib berilgan. 1914 yil boshlarida qishloqda rasmiy ro'yxatga olingan 62 ta xo'jalik tashkil etilgan. Boshqa manbada dastlab qishloqda 181 ta xo'jalik mavjud bo'lganligi haqida ma'lumot berilgan. Mirzacho'lda joylashgan Laylakko'l atrofida 1914 yilda rus qishlog'i tashkil topgan bo'lib, bu qishloq 1912 yilda Turkiston o'lkasida bo'lgan rus ma'muri A.V.Krivoshein nomi berilib, bu qishloq «Krivosheino» deb atalgan. Dastlab qishloqda 138 nafar kishi istiqomat qilgan. Shu yilda Sirdaryo temir yo'l stantsiyasidan uncha uzoq bo'lmagan joyda «Slavyanskiy» qishlog'i tashkil topgan bo'lib, Spasskiy volosti tarkibida bo'lgan. Qishloq aslida 344 xo'jalikka mo'ljallangan bo'lsa-da, 1916 yilda qishloqda 124 xo'jalik istiqomat qilgan.

1916 yilda tashkil topgan «Saratovskiy» qishlog'i faqat birinchi jahon urushidan yarador bo'lib qaytganlar va Georgiy ordeni kavalerlari uchun tashkil etilgan. «Saratovskiy» qishlog'ida 1917 yilda ro'yxatga olingan 31 xo'jalikdan faqat 2 xo'jalik istiqomat qilgan. Qolganlar xo'jaliklarning boshliqlari va oila a'zolari boshqa ishlar bilan mashg'ul bo'lgan yoki bir necha yuz rubl evaziga o'zlariga qarashli yer maydonlarini boshqa dehqonlarga ijaraga bergan.

Rossiyada birinchi jahon urushining boshlanishi arafasida Kavkaz va Zakaspiy o'lkasiga ish izlab kela boshlagan turli millat vakillariga mansub bo'lgan aholining bir qismi Turkiston hududiga kelgan. Ularning tarkibida savdogarlar va sanoat bilan tanish xodimlar ham bor edi. Ko'chib kelgan aholi Mirzacho'ldagi temir yo'l stantsiyalarida ish topish uchun o'rnasha boshladi. Ular Mirzacho'l-1 stantsiyasi atrofida, suv yetib kelmagan tashlandiq va bo'sh yerlarga o'rnashgan. Stantsiya atrofida hunarmandchilik markazi yuzaga kelgan. Dastlabki vaqtlarda bu yerga mahalliy aholi vakillari ham kelib o'rnashgan. Knyaz N.K.Romanov yerlarida ijarachilarning 60% ini mahalliy aholi va 40% ini rus va boshqa millat vakillari tashkil etgan. Bu qishloq asosan N.K.Romanovga qarashli yerda tashkil topganligi tufayli «Knyajeskiy» qishlog'i deb atalgan. 1914 yilda qishloq aholisi

342 ta jondan iborat bo'lgan. Qishloqdagi savdo rastalari 62 nafar mahalliy aholi vakillari, 19 nafar rus, 15 nafar arman, 7 nafar fors va boshqa millat vakillari savdogarlariga tegishli bo'lgan.

«Chernyaevo» qishlog'i O'rta Osiyo temir yo'l tarmog'ida yuzaga kelgan yirik savdo va hunarmandchilik qishloqlaridan biri bo'lgan. Qishloq tashkil etilgan 1899 yilda xususiy shaxslarga 103 ta yer maydoni sotilgan, 55 ta yer maydoni esa iste'fodagi quyi lavozim amaldorlariga va Rossiyaning ichki guberniyalaridan kelgan dehqonlarga bepul berilgan. 1913 yilda «Chernyaevo» qishlog'ida 100 dan ortiq xo'jalikdan iborat bo'lib, aholining 70% ini xizmatchilar, savdogar va hunarmandlar esa 30 % ini tashkil etgan.

1917 yil boshida Mirzacho'lda 24 ta rus qishlog'i mavjud bo'lgan. Vohada tashkil topgan rus qishloqlarining ayrimlari turli sabablarga ko'ra qisqa vaqt davomida mavjud bo'lgan bo'lsa, boshqalarining keyingi yillardagi rivojlanishi natijasida vohada yangi shaharlar paydo bo'lgan.

Mirzacho'l hududida yangi yerlarni o'zlashtirish va irrigatsiya ishlarini amalga oshirish uchun harakatlar garchi sekinlik bilan bo'lsa-da, davom etdi. Mirzacho'l ham rus muhojirlariga osonlikcha bo'ysunishni istamadi. Metropoliyadan ko'chib kelganlar, ayniqsa, kazaklar va ruslarning aksariyati, o'zlarini bu yerda g'olib mamlakatning vakillaridek his qilishib mahalliy aholiga nisbatan ko'pincha qo'pol muomala qilishgan. Bunday ta'rif, birinchi navbatda, kazaklarga, boshqaruv, harbiy-politsiya tashkilotlaridagi mansabdorlarga, hamda hech qanday ruxsatsiz, o'zboshimchalik bilan ko'chib kelganlarga taalluqli bo'lgan.

Shunday qilib, Mirzacho'lda rus qishloqlari paydo bo'lishida uchta asosiy bosqichni ajratib ko'rsatish mumkin. Birinchi bosqich 1885-1896 yillarni qamrab olib, bunda rus qishloqlarining tashkil topishi Mirzacho'lni o'zlashtirish ishlarini kengayishi bilan bog'liqdir. Ikkinchi bosqich 1896-1910 yillarni o'z ichiga olib, Mirzacho'lni o'zlashtirish ishlari davom ettirilishi, o'rta hol rus dehqonlarini imtiyozli shartlar bilan vohaga ko'chib kelishlarini rag'batlantirish, temir yo'l tarmog'i qurilishining boshlanishi va hukumat ruxsatisiz ko'chib kelganlar tomonidan yangi rus qishloqlarining paydo bo'lishi bilan xarakterlanadi. 1910-

1917 yillarni qamrab olgan uchinchi bosqichda vohada o'ziga ham siyosiy, ham iqtisodiy tayanchini vujudga keltirish maqsadini ko'zlagan rus hukumati rejasi asosida yangi rus qishloqlari tashkil etilgan. Agar XIX asrning 70-80 yillarida Rossiya guberniyalaridan Mirzacho'lga ko'chib kelgan aholi kelib-ketib yashagan bo'lsa, XIX asrning 90-yillardan boshlab vohaga ko'chib kelgan aholi muqim yashay boshlagan, ularga hukumat tomonidan ssudalar ajratilgan, xonadonlar soni ko'paygan.

Mirzacho'lda rus qishloqlarining paydo bo'lishi ijobiy ahamiyatga ham ega bo'lib, vohaning iqtisodiy jihatdan rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan.

## **II. Семинар мавзулари, глоссарий, адабиётлар рўйхати**

### **II.1. Tavsifiya etiladigan seminar mashg'ulotlari mavzulari**

1. Xo'jamushkentsoy, Sho'rbuloqsoy, Mug'olsoy, Tog'obsoy, Sarmichsoy, Sirdaryo bo'ylari aholisi
2. Mirzacho'l hududining tabiiy sharoiti va suv manbalari
3. Mirzacho'lda o'rta asr sug'orish inshootlari
4. Mirzacho'l hududidagi Bog'don, Yangiqo'rg'on va Zomin kabi uchastkalar
5. XIX asrning ikkinchi yarmi - XX asrning boshlarida Mirzacho'l hududidagi aholi manzilgohlari va ularning tuzilishi
6. Rossiya imperiyasining vohani o'zlashtirish siyosati, yangi sug'orish tizimining vujudga keltirilishi
7. An'anaviy yerdan foydalanish tartibidagi o'zgarishlar
8. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Mirzacho'lda yangi qishloqlarning paydo bo'lishi
9. N.K.Romanov tashabbusi bilan Mirzacho'lda turli yillarda 8 ta rus qishlog'i tashkil etilganligi
10. O'troq va ko'chmanchi aholi o'rtasida siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlarning rivojlanishi.

## II.2. Glossariy

**lyoss** – nemischa soʻz boʻlib, sargʻish, mayda zarrali, boʻshoq togʻ jinsiga aytiladi, u oqar suvlar, koʻl, muzlik yotqiziqlaridan va shamol keltirmalaridan vujudga keladi. Qarang: Geografiyadan izohli lugʻat. – Toshkent: Oʻqituvchi, 1979. – B. 82.

**verst** - rus uzunlik oʻlchov birligi boʻlib, 1 rus versti 1066.8 metrga teng. Qarang: [www.slavs.org.ru](http://www.slavs.org.ru). Yana qarang: Egamberdiev R.S., Razoqgov A. Oʻzbekistonda qoʻriq erlarni sugʻorish, oʻzlashtirish va melioratsiyalash tarixi (Mirzachoʻl misolida). – Toshkent: Fan, 1984. –B.28.

**molokanlar** - pravoslav mazhabi, shuningdek ruslarning alohida etnik guruhi. Atamaning kelib chiqishi turlicha talqin etiladi, ularning biriga koʻra molokanlar pravoslav aqidalariga zid ravishda roʻza kunlari sut isteʼmol qilishgan, molokanlarning oʻzlarining talqiniga koʻra atama «Injil»dagi “ruhiy sut” metaforasiga bogʻliq, uning targʻibotchisi tambovlik Semyon Uklein boʻlib, bu erdan molokanlik Saratov, Voronej va boshqa guberniyalarga tarqalgan. Qarang: Xristianskie sektoʻ GʻGʻ [www.wikipedia.org.ru](http://www.wikipedia.org.ru).

**xutor** - yakka tartibda xoʻjalik yuritish

**otrub** - quloq xoʻjaliklarini koʻpaytirish maqsadida Rossiya hukumati maʼmurlari tomonidan jamoaga qarashli erlardan kesib, oʻziga toʻq dehqonlarga xususiy mulk qilib berilgan er maydoni

**obivatel** - ijtimoiy hayotga aralashmay oʻzining shaxsiy turmushi bilan ovora boʻlgan, tor fikrli odam

**meshchan** - tushunchasi tor, manfaatparast odam; shahar mayda burjuaziyasiga mansub mayda hunarmand va mayda savdogar; oʻz shaxsiy manfaatlari bilan ovora boʻlgan odam

**menonit** - protestant sektalaridan biri, bu atama sekta asoschisi golland Menno Simons (1496-1561) nomi bilan bogʻliq, dastlab Prussiyadan Rossiya hukumati taklifiga koʻra 1789 yilda 228 ta oila koʻchib kelgan

**baptist** - yunoncha «choʻqintirish», protestant mazhablaridan biri boʻlib, ushbu diniy taʼlimotning asosini qatʼiy eʼtiqodga ega boʻlgan yoshi katta kishilarning ixtiyoriy va ongli choʻqintirilishi tashkil etadi

**xlistlar** - pravoslav mazhablaridan biri bo'lib, xlist atamasining kelib chiqishi ularning o'zini novda, qamchi (xlist) bilan savalash orqali tan azobi berish odatiga bog'liq, uning asoschisi kostromalik Daniil Filippov bo'lib, xlist jamoalari Tambov, Samara, Orenburg va Shimoliy Kavkazda mavjud bo'lgan. Qarang: Xristianskie sekto' G'G' [www.wikipedia.org.ru](http://www.wikipedia.org.ru).

**subbotniklar** -XVIII asr oxirida Rossiyada vujudga kelgan diniy oqim; qarashlariga ko'ra yahudiylarga yaqin diniy sektalardan biri

### **II.3. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажигимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан курашимиз. –Т.; Ўзбекистон. 2017.
2. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон маърифатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 24 йилигига бағишланган тантанали маросимидаги маросимидаги маърузаси. –Тошкент.: Ўзбекистон. 2017.
3. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. –Тошкент.: Ўзбекистон. 2017.
4. Muriel Joffe. Autocracy, Capitalism and Empire: the politics of irrigation. // Russian Review. – Vol. 54, No. 3. – Jul., 1995. – P. 365-388.
5. Буряков Ю., Грицина А. Мавереннахр на Великом Шелковом пути. – Самарканд-Бишкек, 2006. – 208 с.
6. Мусаев Н. Ўрта Осиёда деҳқончилик маданияти ва аграр муносабатлар тарихидан (Тош даври охиридан -XX аср бошларига қадар). – Тошкент: Фан, 2005. – 235 б.

### **Qo'shimcha adabiyotlar**


1. Алибеков У. XIX аср охири – XX аср бошларида Сирдарё вилояти демографияси // Ўзбекистонда урбанизация жараёнлари: Тарих ва ҳозирги замон. Халқаро илмий-амалий анжуман материаллари. – Тошкент, 2007. – Б. 17-20.
2. Базарбаев А. XIX аср охири – XX аср бошларида Мирзачўлда аграр муносабатлардаги ўзгаришлар.- Дисс.автореферати.- Тошкент, 2018. б.
3. Мирзаева Н. Мирзачўлнинг ўтмиш тарихи. – Тошкент: Адабиёт учқунлари, 2016. – 136 б.
4. Грицина А.А. Уструшанские были. – Ташкент: Изд. А.Кадыри, 2000. – 244 с.
5. Грицина А.А. Археологические памятники Сырдарьинской области. – Ташкент: Фан, 1992. – 182 с.




6. Қудратов С. Сардобалар ўлкаси (Сирдарё қадимги ва ўрта асрларда). – Тошкент: Фан, 2001.
7. Зиёев Ҳ. Ўзбекистон мустамлака ва зулм исканжасида (XIX асрнинг иккинчи ярми – XX аср бошлари). – Тошкент: Шарқ, 2006. – 352 б.
8. Қодиров А. Ўзбекистон ирригацияси тарихидан лавҳалар (XIX аср ўрталаридан 1920 йилларгача). – Тошкент: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1998. – 144 б.

# Поляр

## О'римбой - Мирза каналining qadimgi izlari xaritasi



XIX asr oxiri XX asr boshlarida Mirzacho'lda tashkil topgan rus qishloqlarining  
joylashish o'rni  
(V.F. Karavaev bo'yicha)




**Mirzacho’lda rus qishloqlarining tashkil topishi sanalari to’g’risida  
ma’lumot**

№	Қишлоқ номлари	Ташкил этилган санаси		
		И.З.Одишелидзе* 1912	Н.С.Ликошин* 1911	В.Ф.Караваяев 1914
1.	Николаевский	1893	1898	1891
2.	Конногвардейский	1897	1897	1897
3.	Романовский	1885	1899	1887
4.	Надеждинский	1885	1886	1886
5.	Обетованный	1895	1895	1888
6.	Верхний Волинский	1897	1897	1896
7.	Нижний Волинский	1889	1897	1897
8.	Спасский	1906	1906	1906
9.	Духовский	1901	-	1898
10.	Ахмонкул	1909	-	1908
11	Запорожский	-	-	1885
12	Сирдарьинск (Нахаловка)	-	-	1908
13	Самсонов	-	-	1913
14	Велико Алексеевский	-	-	1913

XIX asr oxiri XX asr boshlarida Mirzacho'lda tashkil topgan rus qishloqlarining  
joylashish o'rni

(O'zR MDA. I - 69. R - 1. 62 – ish, 4 - v. asosida)



Vaqtli matbuot materiallari







Юрта киргиз-кочевника в Голубой Стеле



Армыс «Булак» в юртах Бегонуть.



Полив хлопка.



Осучивание хлопка тузенцами.

## Ta'lim texnologiyalari

“FSMU” texnologiyasi bo'yicha topshiriq.

**F** - fikr

**S** - sabab

**M** - misol

**U** - umumlashtirish

### Klasterni tuzish qoidasi

#### Кластерни тузиш қоидаси

1. Ақлингизга нима келса, барчасини ёзинг. Ғоялари сифатини муҳокама қилманг фақат уларни ёзинг.
2. Хатни тўхтатадиган имло хатоларига ва бошқа омилларга эътибор берманг.
3. Ажратилган вақт тугагунча ёзишни тўхтатманг. Агарда ақлингизда ғоялар келиши бирдан тўхтаса, у ҳолда қачонки янги ғоялар келмагунча қоғозга расм чизиб турунг.



# ИНСЕРТ ЖАДВАЛИ

График ташкил этувчининг тури, аҳамияти ва хусусиятлари

Ўқув фаолиятини ташкиллаштиришнинг жараёни тузилмаси

**“ИНСЕРТ” жадвали**  
 Мустақил ўқиш вақтида олган маълумотларни, эшитган маърузаларни тизимлаштиришни таъминлайди; олинган маълумотни тасдиқлаш, аниқлаш, четга чиқиш, кузатиш. Аввал ўзлаштирган маълумотларни боғлаш қобилиятини шакллантиришга ёрдам беради

*Инсерт жадвалини тўлдириш қоидаси билан танишадилар. Алоҳида ўзлари тўлдирадилар*

Ўқиш жараёнида олинган маълумотларни алоҳида ўзлари тизимлаштирадилар - жадвал устунларига “киритадилар” матнда белгиланган қуйидаги белгиларга мувофиқ:  
 “V” - мен билган маълумотларга мос;  
 “-” - мен билган маълумотларга зид;  
 “+” - мен учун янги маълумот;  
 “?” - мен учун тушунарсиз ёки маълумотни аниқлаш, тўлдириш талаб этилади

“В.ВХ.В.”

## Б/БХ/Б ЖАДВАЛИ

**Б/БХ/Б ЖАДВАЛИ-**  
 Биламан/ Билишни хоҳлайман/ Билиб олдим.  
 Мавзу, матн, бўлим бўйича изланувчиликни олиб бориш имконини беради.  
 Тизимли фикрлаш, тузилмага келтириш, таҳлил қилиш кўникмаларини ривожлантиради.

Жадвални тузиш қоидаси билан танишадилар. Алоҳида /кичик гуруҳларда жадвални расмийлаштирадилар.

“Мавзу бўйича нималарни биласиз” ва “Нимани билишни хоҳлайсиз” деган саволларга жавоб берадилар (олдиндаги иш учун йўналтирувчи асос яратилади). Жадвалнинг 1 ва 2 бўлимларини тўлдирадилар.

Маърузани тинглайдилар, мустақил ўқийдилар.

Мустақил/кичик гуруҳларда жадвалнинг 3 бўлимни тўлдирадилар

“Venn diagrammasi”

# ВЕНН ДИАГРАММАСИ

**ВЕНН ДИАГРАММАСИ** - 2 ва 3 жихатларни ҳамда умумий томонларини солиштириш ёки таққослаш ёки қарама-қарши қўйиш учун қўлланилади. Тизимли фикрлаш, солиштириш, таққослаш, таҳлил қилиш кўникмаларини ривожлантиради.


Венн диаграммасини тузиш қоидаси билан танишадилар. Алоҳида кичик гуруҳларда Венн диаграммасини тузадилар ва кесишмайдиган жойларни (x) тўлдирадилар

Жуфтликларга ўзларининг бирлашадилар, таққослайдилар ва тўлдирадилар диаграммаларини

Доираларни кесишувчи жойида, икки-уч доиралар учун умумий бўлган, маълумотлар рўйхатини тузади.

## “Baliq skeleti”


### “БАЛИҚ СКЕЛЕТИ” ЧИЗМАСИ



## “Pog’ona” texnologiyasi



# Тузилмавий-мантиқий чизма “Поғона”



## MUNDARIJA

Kirish.....	3-4
Mirzacho'l hududining tabiiy sharoiti va suv manbalari.....	5-10
Mirzacho'lning o'rta asrlarda sug'orilishi.....	10-15
Turkistonda agrar siyosat me'yoriy asoslarining yaratilishi.....	15-24
Rossiya imperiyasining vohani o'zlashtirish siyosati, yangi sug'orish tizimining vujudga keltirilishi.....	24-33
Yerdan foydalanish tartibidagi o'zgarishlar.....	34-44
XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Mirzacho'lda yangi qishloqlarning paydo bo'lishi .....	44-60
Tavsiya etiladigan seminar mashg'ulotlari mavzulari .....	61
Glossariy.....	62-63
Adabiyotlar ro'yxati .....	64-65
Ilovalar	

## ОГЛАВЛЕНИЕ

Вступление.....	3-4
Природные условия и водные источники Голодной степи.....	5-10
Орошение Голодной степи в средние века.....	10-15
Создание нормативных основ аграрной политики в Туркестане.....	15-24
Политика оазисного освоения Российской империи, создание новой ирригационной системы.....	24-33
Изменения в землепользовании .....	34-44
Возникновение новых селений в Голодной степи в конце XIX века - начале XX века.....	44-60
Рекомендуемые темы семинарских занятий .....	61
Глоссарий .....	62-63
Список литературы.....	64-65
Приложения	

## TABLE OF CONTENTS

Introduction.....	3-4
Natural conditions and water sources of the Hungry Steppe .....	5-10
Irrigation of the Hungry Steppe in the Middle Ages .....	10-15
Creation of normative bases of agrarian policy in Turkestan .....	15-24
The policy of oasis development of the Russian Empire, the creation of a new irrigation system .....	24-33
Land use change .....	34-44
The emergence of new villages in the Hungry Steppe at the end of the 19th century - the beginning of the 20th century .....	44-60
Suggested Seminar Topics .....	61
Glossary .....	62- 63
Bibliography.....	64-65
Applications	



